

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI
ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

TABIIY FANLAR FAKULTETI

IQTISODIY VA IJTIMOIIY GEOGRAFIYA KAFEDRASI

«O‘ZBEKISTONDA MADANIY TURIZMNI
RIVOJLANTIRISHNING MINTAQAVIY XUSUSIYATLARI
(Surxondaryo viloyati misolida) » mavzusidagi

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Bajardi: «Geografiya» ta‘lim y o‘nalishi

bitiruvchi 4-kurs talabasi Hamroyev Farhod Yunusovich

ILMIY RAHBAR:

Dots. T.J.Jumaboyev

Bitiruv malakaviy ishi kafedradan dastlabki himoyadan o‘tdi.

_____sonli bayonnoma «__»_____2013 yil

Samarqand-2013

MUNDARIJA

Kirish.....

I BOB. O'ZBEKISTONDA MADANIY TURIZM TASHKIL ETISH IJTIMOIY-IQTISODIY HUSUSIYATLARI.

1.1. Turizmning asosiy va maxsus turlari.....

1.2. O'zbek xalqining urf – odatlari.....

1.3. Odatlar, qadriyatlar, milliy kiyimlar, taomlar, dasturxon bezash.....

1.4. San'at va madaniy – ma'rifiy muassasalar.....

1.5. Milliy taomlar va pazandachilik.....

1.6. San'ati va madaniy – ma'rifiy muassasalari.....

1.7. Milliy-kiyim kechaklar.....

II BOB. SURXONDARYO VILOYATINING MADANIY TURISTIK OBEKTLARI VA ULARDAN FOYDALANISH.....

2.1. Viloyatning tabiiy va iqtisodiy sharoiti hamda ularning turizmni
rivojlantirishdagi ahamiyati.....

2.2. Surxondaryo viloyatining madaniy turistik resurslari va ularning turizmni
rivojlantirishdagi istiqbollari.....

Xulosa.....

Foydalanilgan adabiyotlar.....

Kirish

Mavzuning dolzarbligi shundan iboratki, Surxondaryo viloyatidagi boy turistik resurlar, ayniqsa inson qo'li bilan yaratilgan turistik ob'ektlar hozirga qadar o'rganilgan emas. Shuni hisobga olib biz o'z oldimizga Surxondaryo viloyatida madaniy turistik resurslarni o'rganishni o'z oldimizga asosiy maqsad qilib qo'ydik. O'rganish natijalari esa ushbu malakaviy bitiruv ishida o'z aksini topdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. A. Karimovning 1995 yil 2 iyundagi 1162 raqamli "Buyuk ipak yo'li" ni qayta tiklashda O'zbekiston Respublikasining ishtirokini avj oldirish va respublikada xalqaro "turizmni rivojlantirish borasidagi chora – tadbirlari to'g'risida"gi farmonida mamlakatimizda turistik resurslarni tadqiq qilish, ishga tushirish, bu resurslardan ichki va tashqi turizmni rivojlantirishda muntazam foydalanishni yo'lga qo'yish alohida ta'kidlangan edi.

Prezidentimizning qayd qilingan farmonidagi talablar bo'yicha ishlaganimizda shu narsa ma'lum bo'ldiki, xalqimizning boy tarixiy, madaniy, ijodkorlik va yaratuvchanlik me'rosi, tabiatimizdagi tabiiy – tarixiy ko'rinishlar, xalqlarimizning o'tmish madaniyatini, hayotini aks ettirgan bitiklar, hunarmandchilik ijodlari kabi ishlab chiqarish sohalarini ham ichki va xalqaro turistik resurslarga aylantirishning juda katta imkoniyatlari mavjud ekan.

Respublikamizda turizmning keng qamrovli va salohiyatli turlari bilan birga – nazarimizda, kichik an'anaviy bo'lib ko'ringan resurslardan ham turizmga yaxshi foydalanish imkoniyatlari beqiyos darajada salohiyatlidir. Shuni hisobga olib respublikamizning turli mintaqalarida mavjud turistik resurslarni o'rganish, ularni sistemaga solish va shu asosida xorijiy va mamlakatimiz ichidagi turistlarni maqsadli yo'nalishlar bo'yicha ekskursiyaga olib chiqish juda katta ahamiyat kasb etadi.

Shuni hisobga olib, biz ushbu malakaviy bitiruv ishida mamlakatimizning janubiy mintaqalaridan biri Surxondaryo viloyatida turistik resurslarni o'rganishni o'z oldimizga maqsad qo'ydik. Ma'lumki Surxondaryo O'zbekiston Respublikasining janubiy viloyatlaridan biri. Bu viloyat qadimda Baxtriya –

Tohariston o'lkasining katta bir qismini tashkil etib, asrlar davomida Markaziy Osiyo xalqlarining madaniy taraqqiyotida muhim o'rin tutgan. Bu davr makonlari bo'lmish Teshiktosh va Machay g'orlar, ilk sug'orma dehqonchilikka asoslangan madaniyat markazlari Sopollitepa va Jarqo'tonlardir.

Ayniqsa, viloyatning Kushon davri qishloq va shaharlari bu shaharlarda mavjud me'morchilik inshootlarini bezashda ishlatilgan haykaltaroshlik namunalari o'zining takrorlanmasligi bilan ajralib turadi. O'rta asrlarda ham bu o'lka me'mor va musavvirlarning inshootlar barpo etish va ularni bezashda o'ziga xos uslubga ega ekanligini mazkur davrning ko'shklari hisoblanmish Kuyovqo'rg'on, Bolaliktepa, markaziy shaharlari Termiz va Budrachtepalar misolida juda yaxshi kuzatamiz.

Tadqiqot ob'ekt va predmeti. Malakaviy bitiruv ishining ob'ekti sifatida Surxondaryo viloyatida inson tomonidan yaratilgan tarixiy va madaniy obidalarni o'rganish va ularni kartalashtirishdan iborat.

Tadqiqot maqsadi – surxondaryo viloyati hududida madaniy turistik ob'ektlarni o'rganish, ularni sistemaga solish va kartalashtirishdan iborat.

Tadqiqot vazifalari. Qo'yilgan maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi:

- ❖ Surxondaryo viloyatidagi qadimgi, o'rta asr va yangi davrga xos bo'lgan turistik ob'ektlarni o'rganish.
- ❖ O'tmish madaniy turistik ob'ektlarni kartasini tuzib chiqish.
- ❖ Tuzilgan karta asosida viloyatda madaniy turizmni rivojlantirish bo'yicha takliflar berish.

Tadqiqot usullari. Surxondaryo viloyati madaniy turistik obidalarining kelib chiqish sabablarini o'quv adabiyotlari, ilmiy maqolalar yordamida o'rganish, ularni kartaga tushirish va ulardan kelajakda viloyatda turizmni rivojlantirishda foydalanish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish

Ishning tartibi. Malakaviy bitiruv ishi – kirish, 2 bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Ishning kirish qismida, muammoni o'rganishning dolzarbligi, uni o'rganilganlik darajasi, tadqiqot ob'ekti va predmeti,

tadqiqot usullari asoslab berilgan. Ishning birinchi bobida turizmning maxsus turlari klassifikatsiyasi nazariy jihatdan asoslab berilgan.

Ishning ikkinchi bobida Surxondaryo viloyati hududida inson tomonidan yaratilgan madaniy turistik obidalar va ularning joylashishi tashkil qilingan. Ishning xulosa qismida viloyatdagi madaniy turistik obidalardan turizmni rivojlantirish borasida foydalanish bo'yicha takliflar berilgan.

I BOB. O'ZBEKISTONDA MADANIY TURIZM TASHKIL ETISH IJTIMOIY-IQTISODIY HUSUSIYATLARI

1. 1. Turizmda asosiy va maxsus turlar

Turizmning barcha turlari ishlab chiqarish va insoniyatning ijodi va yaratuvchanlik sohalaridan kelib chiqqan. Ziyorotgoh joylar, tarixiy obidalar, diniy rahnamolarning dahmlari jahonning mashhur kishilari hayoti va boshqalar. Faqatgina ekologik turizm turlari tabiat mahsuli hisoblanadi.

Ishlab chiqarish sohalarining yoki insonlar guruhining mo'jizakor, mukammal va hayratomuz ko'rinishga ega bo'lgan mahsulotlari, inshotlar insonlar oqimini o'ziga jalb qilishi turizm sohasini keltirib chiqardi. Sohadagi turlarning ko'payib borishi ham anashu omillarga bog'liq. Dunyoning 7 mo'jizasini ko'rish, ularning siru-asrorlari bilan tanishishga qiziqish qadim sivilizatsiyada turistlar oqimini tashkil qilganligi ma'lum. Bu davrda "turizm" so'zi ham kashf qilinmagan, tarifi berilmagan edi. O'zga yerdagi odamlarni tabiatni ko'rishga qiziqish, asosiy hollarda boylik izlash uchun chiqqan kishilar hozirda buyuk geografik kashfiyotchilar nomini olgan. Bu davr ham jahonda turizmning rivojlanishida alohida bosqich hisoblanadi.

Hoziga kelib inson o'zining qiziqishi sohalarini ko'rib ulgurishi, qoniqib dam olish, o'rganish, tanlash xususiyatlari va imkoniyat darajalaridan to'g'ri foydalanish uchun ishlab chiqarish sohalarini, tabiiy biologik rasurslarni, odamlarning yashash tarzlarini alohida-alohida turizm sohasiga aylantirdi.

Dastlab inson o'zida paydo bo'lgan e'tiqod xissi nuqtai nazaridan o'z dinidagi barkamol insonlar avliyo va shayxlarga, keyinchalik ularning qabriga sig'indi, bu harakatlar unga xotirjamlik, osoyishtalik keltirishini sezdi. Bunday harakatlar turizmda ziyorotgoh yoki diniy turizm nomini oldi.

Keyinchalik o'tmishdagi o'z ajdodlari qurgan mo'jizakor, mohobatli qurilish inshootlariga, insoniyatning mashhur sarkardalari qurdirgan qasrlarni ko'rishga intildi. Bu harakatlar hozirda tarixiy obidalar turizmi deb nomlangan.

Shu tariqa turizmning turlari ro'yxati to'lib bordi. Hozirgi turizm sohasi bo'yicha mutaxassislarning fikricha jahondagi turizmning asosiy turlari 20-22 yonalishdan iborat. Yuqoridagi fikrlarni keltirishdan asosiy maqsad turizmdagi maxsus turlar ro'yxatini tuzishdan oldin, turizmdagi asosiy turlarning mohiyatiga to'xtalish zarurati bor. Asosiy turlar bilan maxsus turlar mohiyatini, mazmunini taqqoslash bu turlarni bir-biridan ajratish xususiyatlarini, sabablarini tushuntirib berish imkoniyatini yaratadi.

Turizmning asosiy turlari. Ko'pchilik turizm sohasiga iqtisoslashgan olimlarning fikricha, turizmdagi tur turistning ma'lum bir qiziqish ob'ekti turistik resurs- makoni hisoblanadi. A. Yu. Aleksandrova (2008 y) fikricha turizmdagi maxsus turlar quyidagilardan iborat:

1. Shahar turizmi
2. Ishchanlik turizmi
3. Qishloq turizmi
4. Ekologik turizmi
5. Sport turizmi
6. Ziyorotgoh turizmi

Ushbu turlarni tahlil qilganda sport turizmi to'rtta turga ajratiladi.

- ❖ Tog' sport chang'i turizmi
- ❖ Golf turizmi
- ❖ Dliv turizmi
- ❖ Ekstrimal holatlardagi turizm

Turizm bo'yicha yana bir olim A. A. Sarokina (2007 y) turizmning quyidagi tiplari va turlarini ajratadi (1-jadval)

Turistlarning maqsadi bo'yicha turlarni tiplarga ajratish

(A.A.Sarokina 2007 yil)

Turning tiplari	Turistlarning maqsadi	O'tkazish joylari
Faol dam olish (aktiv) tipi	1.Sport bilan shug'ul-lanish 2.Sarguzasht 3.Yangi tasurotlar izlash 4.Hamfikrni axtarish	Tog' chang'i sporti bilan haftani o'tkazish
Sust (passiv) dam olish tipi	1.Ekologik toza muhitli joylarda dam olish 2.Tabiat landshaftlaridagi betakrorlikdan zavqlanish 3.Bo'sh vaqtni ko'ngil-xushlik bilan o'tkazish	Antaliyada haftalik dam olish
Bilimga o'rganishga oid tiplar	1.Har xil mamlakatlar, mintaqalarda aholining urf-odatlar va madaniyati bilan tanishish 2.Ko'rgazmalarga, teatr-larga va muzeylarga borib dunyoqarashni kengaytirish 3.Yangi tanish orttirishga intilish	Evropa davlatlari poytaxtlariga avtobus-larda turlarni o'tkazish
Chet elda o'qish, ta'lim olish tipi	1.Litsdenziya, diplom va sertifikat olish	Mal'ta davlatida ingliz tilini o'rganish
Mavzuli turlar tipi (sab-tur)	1.Ham fikr bilan muloqat yo'lini izlash 2.Dunyoqarashni kengaytirish 3.Tajriba almashtirish	Fillandiyadagi katejlarda dam olish
Intinsiv turlar tipi	1.Alohida xizmat ko'rsatgan ishchilarni rag'batlantirish	Firmalararo musobaqa g'oliblariga Qora dengiz-ga yo'llanma berish
Ekotur tipi	1.Tabiat bag'rida bo'lish 2.Flora va fauna bilan tanishish	Kavkaz qo'riqxonalariga sayyohat

Voqeali turlar tipi	1.Voqealarda koncertlarda,olimpiya o'yinlarida qatnashish	Venetsiyadagi karnovalga sayohat
Ekstrimal turlar tipi	1.Hayot yoki sog'lik uchun tavakakl qilish 2.Adrinalin qabul qilish	Sibir daryolari bo'ylab raf. Turlar
Kulbli dam olish	1."Buyurtma" bo'yicha dam olish 2.Maksimal kamfort va sifatli xizmat 3.Ko'p maqsadli turlar (dam olish, sport, ekskurtsiya va boshqalar)	Ballar orollaridagi klublarga sayyohat

Butun jahon turizm tashkiloti (BTO) – turizmning quyidagi besh turini istiqbolli yo'nalish deb hisoblaydi. Bular quyidagilar:

1. Sarguzasht turizmi

Bu tur asosan tog' cho'qqilariga chiqish, suv osti kemalarida sayyohat qilish va "yerning ohiri" ga sayyohat va boshqalar.

O'zbekistonda bu turni tog' so'qmoqlari, cho'llar bo'ylab va Orol dengizi havzasiga sayyohat marshrutlari bo'yicha rivojlantirish mumkin.

2. Dengiz va suv havzalari bo'ylab sayyohat turizmi

3. Madaniyatni o'rganish turizmi

a)diniy ziyorotgoh turizimi

b)madaniy – tarixiy turizmi

4. Mavzuli turizmi

a) iqlimni o'rganish

b) hayvonot olamini o'rganish

v) o'simlik dunyosini o'rganish

g) pallontologiyani o'rganish

Ushbu yo'nalishlar katta turistlar oqimini tashkil qiluvchi turlar ko'rsatilgan.

Respublikamizda ushbu turizm turlarining birortasi ham chuqur o'rganilmagan. Shuni hisobga olib biz ushbu malakaviy bitiruv ishida Respublikamizning janubiy mintaqasi ya'niy Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlarida madaniyatni o'rganish turizmining xozirgi holati va kelajakdagi rivojlanish imkoniyatlarini o'rganishni asosiy maqsad qilib qo'ydik.shuning uchun eng avvalo respublikamizda madaniyatni o'rganish turizm turlarini o'rganib chiqishni o'z oldimizga maqsad qilib qo'ydik. O'zbekistonda madaniy turizmning shakillanishini o'rganishda eng avvalo o'zbek elatining shakillanishini o'rganish muhim ahamiyatga ega.

1.2. O'zbek elatining shakllanishi va uning madaniyati, turizmdagi ahamiyati

Tarixchi olimlar fikricha eramizdan avvalgi 1 ming yillikning o'rtalaridan boshlanib butun antik davr davomida etnik ildizi, xo'jalik – mahalliy va turmush tarzi bir zamindagi hozirgi o'zbekiston hududida yashagan mahalliy yevroid aholi bilan asta-sekin sharqdan mangoloid irqiy millatlarning tarqalishi natijasida yuzaga kelgan etnik jarayon bilan bevosita bog'liq bo'lgan. Bu hudud eramizning V asridan boshlab Xunlar bilan Sak-Massaget aralashmasidan tashkil topgan – Eftalitlar davlatiga kirgan. Bu davlat siyosiy jihatdan ko'pgina xalq va elatlarning turli ijtimoiy-iqtisodiy tuzum din va ibodatlarini biriktirgan.

Tarixiy xujjatlarga qaraganda O'rta Osiyoning g'arbiy va janubiy rayonlarida aholining ko'payishi qoraxoniylar va saljuqiylar davlatlarining (X-XI asrlar) hukmronligi bilan bog'liq. Undan oldinroq turkey tillar Farg'ona va Choch viloyatlarida Zarafshon va Qashqadaryo vodiylarida mahalliy tillarni siqib chiqargan.Xorazim voxasida mug'ul istilosidan keyin XIII-XIV asrlarga kelib qadimgi Xorazim tili mutlaqo yoqilib,turkiy tilining o'giz shevasi singadi, ammo mahalliy aholini turkiylashtirish jarayoni qadimgi yuksak madaniyatli elatlar etnik tuzilishiga tasir qilmagan. Demak shu davidan boshlab umumiy til va shevalarda

gapiradigan barcha elatlar va qabilalar asta sekin yaqinlashib o'zbek va boshqa O'rta Osiyo turkey xalqlar etnogeneziga poydevor qo'yilgan edi. Ayniqsa bu jarayon Farg'ona, So'g'd, Choch va Xorazm qisman Buxoro aholisi orasida jiddiy sur'atlar bilan ro'y bergan.

XV asr ohiri XVI asr boshlarida eng keying yirik ko'chuv ro'y berdi. Bu davrda O'rta Osiyodagi mahalliy hokim va podsholar orasida taxt uchun kurash natijasida ular ancha zaiflashgan edi. Dashti qipchoqdan kelgan qudratli Shayboniyxon boshchiligidagi ko'p sonli qo'shinlar oldida xonlar o'zlik qildi, natijada O'rta Osiyoga Shayboniyxon hukumronlik qildi. O'zbekistonning Zarafshon, Surxondaryo va Qashqadaryo vodiylarida, Xorazm vohasi va boshqa rayonlarda Shayboniyxon bilan kelgan "O'zbek" nomli turkiy tildagi qabilalar ham o'rmasa boshlaydi va mahalliy aholi bilan aralashib ketadi. O'sha davrda o'zbek tilida adabiy va tarixiy asarlar keng tarqaldi ("Shayboniynoma", "Nusratnoma", "Abdullanoma", "Alpomish" kabilar). Turli xildagi urug'-qabilaviy turkumlardan tashkil topgan etnik guruhlardan mang'i, qo'ng'iroq, qiyot, qipchoq, xitoy, qangli, do'rmon, kenagas, saroy, ming, qirq, yuz, qo'shchi, nayman, chimboy, qovchin, chiroyli, iyjon, salur, uyshin, o'tarchi, qatog'on, kulon, arlot, qo'shoyoqli, buyrud kabi etnonimlar o'zbek va boshqa O'rta Osiyo turkey elatlarining xalq sifatida shakllanishida muhim kompanent hisoblanadi.

Yangi davr (XIII-XIX asrlar) davomida O'zbeklarning etnik shakllanishi davom qilib, o'zlarining urug' - qabilaviy nomlarini to bizning asrimiz boshlarigacha qisman saqlab kelganlar. Ammo Turkiston o'lkasi va O'zbek xonliklari rus mustamlakasi tufayli jahon kapitalistik munosabatlari girdobiga tortilla boshlagach asta-sekin milliy uyg'onish kurtak ota boshlaydi. Milliy burjuaziya paydo bo'ladi, ular o'zlarining mafkurachilari (jadidlar) orqali milliy g'urur va his tuyg'ular, an'anaviy turmush tarsi va madaniyat ravnaqi uchun jiddiy kurash boshlaydilar. Chor hokimyatining mustamlakachilik siyosati mazkur jarayonga g'ov bo'lib, O'zbek elining jahon miqyosidagi ijtimoiy-madaniy-taraqqiyot yo'liga chiqishini cheklab qo'yadi. Butun O'rta Osiyoning chorizm davrida sun'iy ravishda Turkiston general-gubernatorligi, Xiva xonligi va Buxoro

amirliligiga bulunganligi ham mahalliy elatlarning shu jumladan O'zbeklarning milliy birligiga jiddiy to'siq bo'ladi.

Tadqiqotchilar asrimiz arafasida O'zbek xalqi tarkibida uchta etnik guruh (subetnos) mavjud bulganligini qayd qiladilar. Ulardan birinchi eng qadimiy davrlardan o'troq holatda shahar va qishloqlarda yashab, O'rta Osiyoga eramizning 1ming yilligi ohirlaridan boshlab uzoq davr davomida ko'chib kelib asta-sekin o'troqlashgan turkiy elatlar bilan aralashib ketgan aholidir. Ularga o'sha davrlarda sart deb nom berilgan bo'lib, asosan Farg'ona, Toshkent, Xorazm, qisman Zarafshon vohalarida saqlanib qolgan. Ammo ularning eng ko'pi Farg'ona vodiysida saqlanib qolgan ikkinchi subetnos Shayboniy o'zbeklar kelishidan oldin qadimiy turkiy elatlar bilan turk-mo'g'il qabilalarning aralashmasidan kelib chiqqan. Ular XX asr boshlarigacha urug'-qabilaviy an'alarini saqlab srtlarga qo'shilmay yarim o'troq turmush tarzida yashab kelganlar va etnografik adabiyotlarda "Turklar" degan nomi bilan ma'lum. Ko'p aholi hisoblangan bu turklar asosan Farg'ona vodiysida, Samarqand va Jizzax viloyatlarida, O'zbekistonning sharqiy qismida joylashgan.

O'zbekistonning uchinchi yirik etnik guruhi XV-XVI asrlarda Movaraunnaxrga ko'chib kelgan Dashti qipchoq o'beklarining avlodlaridir. Ular yarim ko'chmanchilik turmush an'alarini saqlab kelgan, chorvachilik hamda dehqonchilik xo'jaligini birga olib brogan subetnoslardan iborat. Maskur gurihning o'ziga xosligi irqiy tuzilishida Mangaloid belgilarining ancha sezilarli ekanligi, tilida "jo'qchilar" shevasi kuchli va o'z nomida "O'zbek" deb nomlangandir. Bu guruh tuli qabilalardan iborat: Qo'g'irot, Mang'it, Qipchoq, Nayman, Kenagas, Saroy, Xitoy, Ming, Yuz, Qiriq, Qatog'on va hako'zalar. Maskur qabila va elatlar Zarafshon, Qashqadaryo, Surxondaryo, sheroboddaryo, boysun daryolari havzasida, Nuota va Qurama tog' etaklarida, Xorazim va Farg'ona vohalarida joylashgan.

O'zbek xalqining qadimiy ajdodlari ham ibtidoiy jamoa davrlaridan boshlab tabiiy sharoitga moslashib o'ziga xos **xo'jalik-madaniy tiplarini** yaratganlar. O'zbeklarning ko'p qirrali qishloq xo'jaligi asrlar osha to'plangan an'anaviy tajribaga tayanadi. O'zbekistonning hozirgi hududi tabiiy-geografik sharoitga

qarab uchta qishloq xo'jalik zonasiga bo'linadi: tog' va tog' oldi zonasi, sug'orma yerlar zonasi va dasht yaylov yerlar. Ziroatchilik vohalari Farg'ona, Qashqadaryo va Surxondaryo vodiylarida Zarafshon va Xorazim vohalarida qadimgi davrlarda ma'lum. Arxeologlarning tarificha qadimgi chovador qabilalarining dehqonchilik xo'jaligiga o'tishi chinakkam inqilobiy hodisa hisoblanib, uni neolitik, ya'ni yangi tosh davri inqilobi deb nomlaganlar. Bunday holat O'rta Osiyoda to'rt-besh ming yillar muqaddam ro'y bergan va uzoq davr davomida rivojlanib va takomillashib kelgan.

O'zbeklar **ziroatchilik** sohasida boshqa O'rta Osiyoliklar singari, eng qadimiy ajdodlaridan o'tgan sug'oriladigan va lalmikor dexqonchilik, kichik va katta, oddiy va murakkab sug'orish inshootlari va tizimlari qurushni, dalalarni sug'orishni har xil usullarni agrotexnika sirlarini yaxshi bilganlar. Sugorma dehqonchilik xo'jaliklari asosan qadimiy vohalarda Xorazm, Buxoro, Toshkent, Samarqand vohalarida, Qashqadaryo va Surxondaryo havzalarida Farg'ona vodiysida joylashgan. Bahoriy ekinlar Toshkent vohasi Farg'ona va Zarafshon vodiysi Qashqadaryo va Surxondaryo tog' etagi mintaqasida ekilgan. O'zbekistonda tabiiy geografik sharoit turlicha bo'lishi tufayli xilma-xil sug'orish usullaridan foydalanilgan. Soy oqovasi havza va hovuzlarda suv to'plash chig'riqlar orqali chuqurdan suv chiqarish kanal va ariqlar qazish yo'li bilan suv keltirish va hokozolar. Sug'orma dehqonchilikning klassik o'lkasi Xorazimda barcha kanallar har yili kuzda qazib tazalangan, keyin to'g'onlar ochilib ariqlarga suv yuborilgan. Buloq, hovuz va korizlar orqali sug'orish bir muncha cheklangan bo'lib, ular asosan Samarqand, Surxondaryo va Toshkent viloyatlarining tog'li tumanlarida uchraydi. Buxoro va Qarshi dashtlarida asosan chorvachilik bilan shug'ullanadigan aholi o'z tomorqalarida poliz va boshqa ekinlarni quduq suvi bilan sug'orishgan. Odatda bitta ariq bir qishloqni ta'minlaydi, shuning uchun ham u asosan o'sha qishloqdagi qabila, urug', bir avlod yoki jamoa nomi bilan atalgan. Masalan, Qalmoq ariq, Qo'ng'iroq ariq, Qipchoq yop yoki Polvonyop va hakoza.

Sug'orish usullari ekin turlariga qarab ham belgilangan. Sholi, beda va boshqali don ekinlar bo'lak yoki taxta-taxta qilib bostirib sug'orilgan. Ko'p

joylarda bostirib sug'orish usulidan yerlarni sho'rini yuvishda ham foydalanilgan. Sug'orish egatlar bilan sug'orilgan. Yerga ishlov berish omoch, mola, baronalar orqali amalga oshirilgan. Bundan tashqari yerga ishlov berishda ketmondan keng foydalanilgan. Etishtirilgan hosilni yig'ib olish o'roqda amalga oshirilgan. Ekin dalalarida asosiy ekiladigan ekinlar bug'doy, arpa, sholi, makkajo'xori, kunjut, zig'ir ekilgan. Sug'oriladigan yerlarda paxta ekilgan. Un tortish tagirmonlarda, Qashqadaryo vodiysi va Xorazmda hayvon kuchi bilan harakatga keltirilgan "haros" yoki "kash-kash" da tortilgan. Osimlik moyi juvozlardan olingan. Poliz ekinlaridan qovun, tarvuz, oshqovoqlar ekilgan. Mevalardan olma, anor, shaftoli, uzum, tut ekilgan. Chorvochilikda asosiy o'rinni qo'ychilik egallagan. Bundan tashqari qoramolchilik, yilqichilik, tuyachilik rivojlangan. O'troq dehqon xo'jaliklarida pillachilik rivojlangan.

1.3. O'zbek xalqining urf-odatlar

To'y marosimlari. O'zbek xalqi hayotida to'y marosimlari uzoq tarixiy davr mobaynida shakllangan. Shunday tantanalardan biri **nikoh to'yidir**. Bunda ikki yoshning yangi hayotga qadam qo'yayotganligi e'loni, qo'ni-qo'shni va jamoaga ma'lum qilinib, ularning turmush qurganligi e'tirof etiladi. Nikoh to'yigacha qadamlar turli marosimlarni bajaradilar. Bu bir-birini yanada yaqindan bilish, o'zaro ishonchni mustahkamlash, to'yni yaqinlashtirish yo'lidagi harakatlardan iborat. Bular uy ko'rish (qiz ko'rish), sovchilik, sep taxlash, to'qqiz tovoq, qizlar majlisi, kelin tushirish, bet ochish, kelin salom, charlar kabi marosimlardir.

O'g'il balog'atga etgach, unga munosib qalq axtarilgan. Unda "Onasini ko'r qizini ol" maqoliga rioya etilgan. Qiz ma'qul deb topilgach, sovchi yuborilgan. Sovchilarning so'ngi borishida fotiha to'y kuni belgilangan. Bo'lajak kelin-kuyovlarga baxt-saodat tilab fotiga to'yga yakun yasalgan. To'ydan avval, qiznikida "qizlar majlisi" o'tkazilgan. Unga qizning yaqin dugonalari qatnashib, o'yin-kulgi qilish odat bo'lgan.

Nikoh to'y kuni osh bir kun oldin qiz tomonga oshning xarajatlari yo'naltiriladi. O'sha kuni qizning otasidida nikoh marosimi o'tkazilib "xutbai

nikoh” ya’ni nikoh o’qilgan. Go’shanga (chimildiqqa) avval kuyov, so’ngra kelin olib kirilgach, ayollar “salomnoma qo’shig’i” ni aytishgan. Bu marosimlarni bajarishda har bir viloyatning o’ziga xos udumlari ham mavjud. Chimildikli uyga kuyovning o’rtoqlari kiradi. Dasturxon yozilib, to’qqiz tovoqqa to’qqiz xil taom qo’yladi. Bo’sh tavoqqa kelinning onasi tomonidan tayyorlangan engil lazizatli taom qo’yilgan. Kuyov jo’ralari tovoqqa sovrin pul tashlab, kuyov uyiga qaytganlar.

Kuyovning uyiga krtish oldidan, qiz ota-onasi bilan xayrlashish marosimi o’tkazilgan. Kelin yangalari, dugonalari davrasida otasining oldiga kelib, uning tizzasiga boshini qo’yib: “Otajon bergan noni tuzingizga rozi bo’ling” – deydi. Otasi rozilik bildirib, unga baxt-saodat, uvali-juvali bo’lishni tlaydi. Songra qiz onasi oldiga borib: “onajon bergan oq sutingizga raxmat”, - deb onasidan rozi-rizolik olib, aravaga chiqqan. Agarda uni kuzatib kelayotgan qiz-juvonlar o’lan va yor-yor aytib, kuyov uyiga qarab ravona bo’lgan. Kuyov eshigi oldida gulxan yoqqanlar. Bu marosimni ham har bir viloyatlarda o’ziga xos tarzda o’tgan. Kelin uyga kirishdan oldin xona eshigi oldida to’xtab, egilib, qulliq qilib tavob etish urfini bajo keltirgan.

Kelin salom marosimi ham jozibali o’tgan. Bu udumga ko’ra kelin-kuyovning ota-onasi va qarindoshlariga alohida-alohida salom beradi. Bu marosimni hazilkash va so’zamol ayollardan biri boshchiligida o’tkaziladi. Shu kuni yoki ertasi kuni “bet ochish” va “ko’rmana” marosimi o’tkazilgan.

O’zbek xalqi to’ylarida beshik to’yi va sunnat to’ylarining tarbiyaviy ahamiyati ham katta bo’lgan. Beshik to’yi nikoh to’yining mahsuli sifatida oilada dunyoga kelgan ilk farzand ko’rilganligi sifatida berilgan. Beshik chaqoloqning ona tomoni qarindoshlari- bobosi, buvisi, tog’a va xolalari tomonidan qilingan. Beshik udumi bilan bog’lik chaqoloqqa zarur barch buyumlar tayyorlangan. Oilada moddiy imkoniyat darajasi va chaqoloqning o’g’il yoki qiz ekanligiga qarab sovg’a tayyorlangan. Sovg’alar karnay-surnay navolari jo’rligida olib borilgan. Mehmonlar kutib olinganda bolaga baxt tilash ramzi sifatida ularning yuzlariga un sepib qabul qilganlar. Dasturxonlar bezatilib, so’ngida chaqoloqni beshikka belash

marosimi o'tkazilgan. Marosim ohirida qarindoshlari yuz ko'rarga kelib sovg'alar berib beshik ustiga shirinliklar solib bolaga, oilaga baxt tilaganlar.

O'zbek xalqining qadimgi to'ylaridan yana biri xatna bo'lib (o'g'il to'yi), undan maqsad islomning sunnatini bajarishidir. To'y o'g'il bolalar 3-7 yoshga etganlarida o'tkazilgan. To'yga qarindoshlar, qo'ni – qo'shnilar bilan biro y atrofida tayyorgarlik ko'rilgan. Ko'rpa, to'shak, to'y sarpolarini tayyorlash mahalla yoki qishloqning keksa va o'rta yoshdagi ayollariga topshirilgan. Bu marosimdan keyin to'y oldidan xatmi qur'on marosimi qilingan. Bunga qishloq yoki mahalla keksalari, masjid imomi, yoki qari va qarindoshlar taklif qilinib, dasturxondan keyin fотиha tortilgan. To'y arafasida toy bolaga qavm – qarindoshlar sarpo kiygizganlar, sunnat to'y elga osh tortish va bolaga ezgu tilaklar tilash bilan yakunlangan.

Fasllar bilan bog'liq urf – odat va bayramlar. XIX asr o'rtalarida qadimiy va an'anaviy o'tkazilgan bayramlar, davr va odamlar bilan bog'liq urf-odat va bayramlar ruhi va mazmuni bilan boyitilgan. Ularni bir necha guruhlariga ajratish mumkin:

- 1) Qish mavsumida o'tkaziladigan gap-gashtak va ziyofatlar;
- 2) Bahorgi tantanali marosimlar, ya'ni Navro'z, shox moylar, qo'sh chiqarish, lola yoki qizil gul sayli, poy tutish va boshqalar;
- 3) Yozgi marosimlar – qovun sayli, choymomo;
- 4) Kuzgi marosimlar – hosil yig'ish, shamol chaqirish va uzum sayli kabi marosimlar.

Har bir faslda o'tadigan urf-odat va marosimlar katta tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan. Shulardan gap-gashtak va ziyofatlar qishqi mavsumda o'tkaziladigan urf-odatlar jumlasidan bo'lib, yig'in-terim ishlarini tamomlanib, tengdoshlar va ruhiy dunyosi, gap-so'zlari hamohang jo'ralar navbat bilan guruhga a'zo bo'lganlardan birining uyida to'planishgan. Bu dasturxon atrofidagi oddiy bir gurung bo'lmay, ulfatchilik va jo'rachilikning qat'iy yozilmagan qonunlari bo'lgan. Ziyofat tom ma'nodagi tarbiya va intizom munosabatlaridan iborat edi. Ziyofatni boshqaruvchi og'a biy saylanib, to qish mavsumi o'tguncha uning

tomonidan boshqarilar edi. Jo'ralarning oilaviy muammolariga doir masalalar, ularni bartaraf etishga jo'ralar yordami va shunga o'xshash muammolar ma'lum bir reja asosida ziyofat og'a buvisi tomonidan olib borilgan. Muammolarni amaliy hal qilish to'g'risida aniq to'xtamga kelingan. Ziyofatdosh jo'ralar har qanday og'ir kunlarda bir-birini yolg'iz qoldirmas, moddiy qiyinchilikka duch kelishi, ko'plashib uni og'ir ahvoldan qutulib ketishiga imkon beradi, dardiga sherik va ma'lum bo'lar edilar.

Xalqimizda **Navro'z bayrami** alohida ko'tarinki va jozibadorlik, tantanovorlik hamda mehr-oqibatlilik mazmuni ufurib turgan holatda o'tgan.sharq alloma va mutaffakirlarining jumladan, Abu Rayxon Beruniy, Umar Xayyom ilmiy ijodiy meroslaridan Navro'z bayrami ham xalq, ham davlat bayrami bo'lgan. Shunga ko'ra xonlar, xukmdorlar mahalliy xokimlar uni juda katta shodiyonalikka aylantirish chorasini ko'rishgan. Navro'zning asosiy sayillari tugagach, dehqonchilik, ekin tekin ishlarini boshlanishi sifatida shox moylar marosimi o'tkazilgan. Uni o'kazish qishloq va ovul oqsoqollari o'z zimmalariga olishgan. Har bir xonadon o'sha kuni turli taomlar pishirgan, noni qatlama, patirlar, bo'g'irsoq va turli xik pishiriqlar tayorlaganlar. Marosim o'tadigan joy tozalanib sholcha, kiygizli gilamlar to'shalgan va dasturxon yozilgan. Qishloq yoki ovul axolisi yig'ilgach, oqsoqol yaxshi tilaklar bilan duoi-fotixa qilib, pishirilgan narsalar maxilla aholisi orasida tarqatilgan. Shundan so'ng qo'sh shiqarish uchun maxsus boqilib turgan ho'kizlardan bir juft olib chiqilib va o'tgan yilgi hosilning ohirgi boshoq tutamidan tayyorlangan kulcha qishloqning barcha mo'tabar qariyalari va boshqa ishtirokchilariga bir parchadan sindirilib berilgan. Kulchaning bir bo'lagi tanlab olingan, ho'kizlarga ham berilgach ularning shoxiga zig'ir yog'i surtilgan. Nihoyat qo'shni qishloqning eng obro'yli serfarzand va ko'p nevarali

1.4. Odatlar, qadriyatlar, milliy kiyimlar, taomlar, dasturxon bezash

Qadriyatlar tarixan tarkib topgan milliy an'ana, urf-odat, rasm-rusm, tamoil, marosimlarning vujudga kelishi va rivojlanishiga bir qancha omillar bevosita va

bilvosita ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa milliy marosimlar va urf-odatlar taraqqiyotida moddiy va ma'naviy madaniyat, tabiiy muhit, xo'jalik munosabatlari ta'siri beqiyos bo'lib, vaqt o'tgan sari ular tobora mustahkamlanib avlodlarga meros bo'lib, o'tib kelgan va shu tariqa ularning barqarorligi ta'minlangan.

O'zbeklarning Movarounnaxr va Xorazm hamda ularga tutash mintaqalarda o'troq dehqonchilik va hunarmandchilik madaniyati sohibi bo'lgan tub joy (mahalliy) xalq ekanligiga xalqimizning ona tabiatga, yerga, suvga, havoga, olovga bo'lgan cheksiz hurmati va ularni ezoqlash bilan bog'liq turfa xil urf-odat va marosimlari, an'anaviy dehqonchilik va hunarmandchilik udumlari misol bo'ladi. Shuningdek xalqimizning qadimiy milliy qadriyatlari bugungi kunda o'ziga xos tarzda rivojlanayotgan shaharsozlik va me'morchilik an'analari, boy folklyor namunalari, ozma meros, adabiyot, sanatga bo'lgan qiziqishlarda Navro'z, Mehrjon bayramlari, gul sayllari, hosil bayramlari hamda nikoh sunnat marosimlari bilan bo'g'liq udumlar, rasm-rusmlarda aks etib kelmoqda. Bu bayram va marosimlarda o'zbek xalqining mardlik, lavzi halollik, bag'rikenglik, saxovatpeshalik, xojatbarorlik kabi xislatlari yorqin ifodasini topgan. Bu ayniqsa, o'zbeklarning to'y-tantanalari uchun yillar mobaynida yig'ib-terib elga tarqatishdan zavq-shavq olishida, aza va yo'qlov marosimlarini uyushgan holda o'tkazishda, bola tug'ilishidan tortib to motam marosimlarigacha bo'lgan barcha marosim va urf-odatlarda keng jamoatchilik va mahalla ahlining doimo bosh-qosh bo'lishi kabi udumlarda namoyon bo'ladi. Milliy mentalitetda shuningdek qadimiy ajdodlarga xos chillak, chavgon, ko'pkari, kurash kabi milliy o'yinlar "quloq tishlar", "beshik ketdi", "qalin", "to'q qiz" kabi rasm-rusm va udumlar ham aks etgan.

O'tmishda O'zbekistonda barcha hayotiy masalalar bilan shaharda mahalla, qishloqda qishloq va ovul jamoalari shug'ullangan. Mahalla va qishloq jamoasini jamoa yig'inida saylangan oqsoqol (Xorazmda Kamudo) boshqargan.

Ijimoiy hayot masjid, choyxona va bozorlarda mujassamlashgan, ularda asosan, erkaklar ishtirok etgan. O'zbek xalqi oila qurish an'anasiga rioya qilishda, qiz uzatish yoki kuyov tanlashda ham quad bo'lmish tamon xususida

ma'lumotga ega bo'lib, ularning ijtimoiy kelib chiqishini, jamoada tutgan o'rnini va obro'-e'tiborini hisobga oladi. O'zbek xalqi orasida keng tarqalgan udumlardan biri mehmondorchilik hisoblanadi. Mehmonga nafaqat urug'doshlar va qarindoshlar, hatto begona kishilar, musofir yo'lovchilar ham qabul qilingan. Mahalla va qishloq jamoalari xonadonlarida mehmonni kutish uchun maxsus xonalar mehmonxona qurilgan. O'zbek xalqining mehmondorchilik taomillari ajdodlardan avlodlarga o'tib hozirgacha saqlanib kelmoqda.

Kattalarni hurmat qilish o'zbek xonadonida umuminsoniy qadriyatlar bo'lib, bolaga juda yoshligidan boshlab o'rgatilgan. Yoshi katta kishining ishiga yordamlashish odat va odob hisoblangan. Odob qoidalariga rioya qilish oiladan boshlangan. Yoz paytlarida ayniqsa barvaqt turilgan. Bolalar yuz qo'llarini yuvib kattalarga salom bergan. Kattalar ayniqsa, mehmonlar qo'liga suv quyib sochiq tutish bolalikdan o'rgatilgan.

Dasturxon oilaning ko'rki, to'kinlik ramzi hisoblangan. Dasturxonga hurmat bajo keltirish odatga aylangan.

Asosiy xo'jalik mashg'ulotlari dehqonchilik bo'lgan o'zbek xalqida non azaldan ezozlanib kelingan. Nonga hurmat bilan munosabatda bo'lish bolalarga juda yoshlikdan o'rgatilgan. O'z navbatida, non bilan bog'liq bir qancha urf-odatlar shakillangan. Jumladan non hech aqchon oyoq ostiga tashlanmagan. Non ushog'ini bosish og'ir gunoh hisoblangan. Non o'ziga xos rizq – nasiba ramzi bo'lganligi uchun ham uzoq safarga yoki harbiy xizmatga ketayotganlarni non tishlatib kuzatish udum bo'lgan.

Nonni yomon ko'zdan yovuz kuchlardan asrovchi vosita sifatida yangi tug'ilgan chaqaloqning yoki hanta qilingan bolaning yostig'i ostiga boshqa qator magik xususiyatga ega bo'lgan birga non qo'yigan.

Suvni qadirjash odati ham O'zbek xalqining turmushida chuqur ildiz otgan. Kattalar farzandlariga suvni bulg'amaslik uqtirib borganlar.

O'zbek xalqi hayotidagi marosimlar asosan, 2 katta turmushga – mavsumiy va oilaviy turmush marosimlariga bo'linadi. Chunonchi mavsumiy marosimlar (gap – gashtaklar, birinci qor yoqqanda “qor xat” yozish), baxorgi marosimlar

(shox moylar, qo'sh chiqarish, loy tutish, Navro'z bayrami, sumalak sayili, gul sayillari, lola sayili, sunbula sayili, "sust xotin"), yoki yozgi marosimlar ("choy momo", suv sayili, tut sayili, qush sayili) va kuzgi marosimlar ("oblo baraka" mehrjon, xosil bayrami, qovun sayili, uzum sayili, anor va anjir sayili) kiradi.

Ikkinchi turkumiga kiruvchi oilaviy – turmush marosimlari ham bir necha guruhga bo'linadi. Bularga bola tug'ilishi va tarbiyasi bilan bog'liq marosimlar, nikoh hamda matom marosimlari kiradi. Shunigdek, o'zbeklarning an'anaviv turmush tarzida islom dini bilan bog'liq ro'za hayiti (iyd al-ftir), qurbon hayiti (iyt al-atho) bayramlari mavlud, ashuro, layald ul qadr kechasini kutish bilan bog'liq tarzda o'tkaziladigan marosimlar ham muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston mustaqillikka erishgach, bu bayramlarning ko'pchiligidan voz kechildi, lekin joriy taqvim bilan bog'liq umumbashariy bayramlardan 1 yanvar-yangi yil, 8 mart –xotin-qizlar kuni, 9 may – xotira va qadrlash kuni tarzida saqlab qolingan. Ayni vaqtda mustaqil O'zbekiston Respublikasida yangi xalq bayramlari ta'sis etildi: 1 sentyabr – mustaqillik kuni, 1 oktyabr – O'qituvchilar va murabbiylar kuni, 8 dekabr – Respublika Kontitutsiyasi qabul qilingan kun, shuningdek Ro'za va Qurbon hayitlari kuni, Navro'z bayrami.

O'zbeklar bahor faslida yana bir qancha boshqa sayillar (boychehcak, gunafsha, gulbargi, qizilgul, lola va sunbula sayillari) ham o'tkazganlar.

Lola sayli o'zbek xalqining qadimgi udumlaridan biri bo'lgan. Xorazm, Buxora va Boysunda "Qizil gul (guli surx) sayli", Qo'qon, Isfara va Toshkent atroflarida "Lola sayli", ba'zi tog'li tumanlarda, jumladan, Chustda "Sunbula sayli" yana boshqa joylarda "Boychechak sayli" kabi bayramlar uyushtirilgan. Lola sayli Navro'z bayramidan keyin (aprelning ohiri- mayning boshlarida) lola va lolaqizg'aldoqlar ochilgan vaqtlarda o'tkazilgan.

Bayramni xalq tomonidan saylangan "Lolachilar" boshqarganlar. "Lolachilar" o'z do'stlari bilan lola saylining qachon va qaerda o'tkazilishini aniqlab, xalqqa xabar bergan. Bayram maxsus joylarda (saylgohlarda) tashkil etilgan. Sayil o'tkazilishidan oldin, "lolachi" maxsus daraxt yoki daraxtning chiroyli shoxidan kesib olib, lolalar bilan bezagan. Keyin uni qishloq ko'chalaridan olib o'tgan. Buni

ko'rgan odamlar ko'chaga chiqib, ko'ngliga tugib qo'ygan niyatlarni aytib, daraxtlar shoxiga turli mato parchalari, ro'molchalar bog'langan. So'ng "lolachilar" ga ergashib, o'yin-kulgi qilib, lolazor tomon yo'l olishgan. Belgilangan joyga kelishgandan so'ng "Gul daraxti" markazga o'rnatilgan va oqsoqollar duosi bilan bayram boshlangan.

Xorazmdagi **Qizil gul saylida** yoshlar o'zlari yasagan guldastalarni qarindosh–urug'lariga, yor-birodarlariga sovg'a qilganlar. Yigit-qizlar bayram boshidan ohirigacha o'z do'ppilariga qizil gul qadab qo'ygan. Gul sayllarining asosida, asosan, bahordagi dehqonchilik yumushlari boshlanishi yotgan bo'lib, gullarning ochilishi dehqonlarga navbatdagi ziroatchilik mavsumi boshlanganligini anglatuvchi o'ziga xos fenologik taqvim hisoblangan. Shu bois Xorazmda "Qizil gul" bayrami boshlangan kuni jo'xori, sholi va boshqa ekinlar urug'i ekilgan. Shuning uchun ham bayram tantanalari qancha yaxshi o'tkazilsa, bahorda dehqonchilik ishlari ham muvofaqiyatli boshlanib hosil mo'l-ko'l bo'lishiga ishonch bildirilgan.

O'zbeklarda yerni haydash, uni ekishga tayyorlash, suv keltirish zamin bag'rida etishtirlgan hosini yig'ib olish savob, dehqonchilik eng sharaflı mashg'ulot hisoblanadi. Ayniqsa dehqonchilik mavsumining boshlanishi o'ziga xos tantana tarzida nishonlanib, Respublikamizning qator mintaqalarida bahorgi shudgor oldidan "is chiqarish" marosimi o'tkazilgan. Har bir oilada ayollar bo'g'irsoq, cho'zma pishirgan. Qozonda yog' yaxshi qizdirilib, so'ngra unga xamir tashlangan. Go'yoki, marhumlar shu yog' hididan ruhlari shod bo'lib, qarindosh urug'lariga omad tilashadi. Yerni haydashdan oldin ho'kizlarning shoxlari ba bo'yin turig'ini yog' bilan moylaganlar. Ho'kizlarni yomon ko'zdan asrasin deb tumorlar taqilgan.

Bahor faslidagi bayram va sayillardan tashqari kuz mavsumidagi to'kin sochinlik bilan bayram va sayillar ham mavjud. Sullardan biri hosil bayrami. Bu bayram ham O'zbek xalqining qadimgi tantanalaridan biri hisoblanadi. Oldinlari bayram kuzda barcha ekinlar hosili mevalar yig'ib terib–olingandan keyin qishloqlarda, shaharlarga yaqin yerlarda o'tkazilgan. Mustaqillikdan keyin

shaharlarda ham o'tkazish ommaviy rasm bo'ldi. Bayram kunlari (2-3 kun) dehqonlar yetishtirgan mahsulotlarni sayil joylariga olib kelib sotishgan. Bayram sayigohiga shahar hunarmand-kosiblari ham o'z mahsulotlarini olib kelib sotishgan. Sayigohlarda har kim o'ziga kerakli mahsulotlarni xarid qilish imkoniyatiga ega bo'lgan. Sayil kunlari poyga, ko'pkari va boshqa musobaqa o'yinlari uyushtirgan. Ba'zi qishloqlarda qo'chqor, tona, xo'roz, tuya urishtirish odat bo'lgan. Jamoalarda shu kunlari mol so'yilib, elga xudoi ham qilingan.

Hosil bayrami va y bilan bog'liq mavsumlar birmuncha o'zgarishlar bilan xozirga qadar yetib kelgan. Har yili dala va bog'larda yetishtirilgan hosil yig'ib olingandan so'ng qishloq jamoalari ma'lum kunlarni hosil bayrami deb e'lon qiladi. Bu kunlar yetishtirgan mahsulotlar belgilangan joylarga (yarmarkalarga) keltirilib sotiladi.

Ha'yit bayrami marosimlariga jiddiy tayyorgarlik ko'rilgan. Arafa kunlari qabristonlarga borib yaqinlar mozarlarini ziyorat qilish odatga aylangan. Hovli va ko'chalar tozalanadi. Ha'it kuni tong yorishi bilan kattayu – kichik toza kiyimlarini kiyib masjid va namozgohlarga borib hayit namozini jamoa bo'lib o'qiydilar. So'ngra yaqin ta'ziyali xonodonlarga borib fotiga o'qib qaytadilar. Hayitning birinchi kuni shahar va qishloqlarda sayil bo'lgan. Hayit kunlari (odatda 3 kun) oilada katta-kichik bir-birlarini tabriklaydilar, qavm-qarindosh, qo'ni-qo'shnilarini ham tabriklaydilar, bemor va nogironlarni borib ko'radilar, to'kin dasturxon yozib, taom pishirib mehmon kutadilar.

Toshkent shahri va Toshkent viloyatining ayrim yerlarida “kelin ko'rish” yoki “kelin salom” deb nomlangan marosimo'tkaziladi. Nikoh to'yidan keyin yosh kelinlar hayit kunlaridasturxon bezatib, mehmon kutishadi. Marosimni o'tkazishdan bir kun avval kelinning ota-onasi qizi kelin bo'lib tushgan xonadonga yo'qlov yuboradi. Bu bilan ular qudalarni, kuyov va qizlarini muborak ayyom bilan qutlashadi. O'z navbatida, kuyov xonadonidagilar ham o'zlari pishirgan shirinliklardan berib yuborishadi.

Insoniyat hayotining muhim burilish tuqtalari bilan bog'liq tarzida o'tkaziladigan tadbirlar **oilaviy marosimlar** deb yuritiladi. Oila va oilaviy

marosimlar etnosga xos madaniy va maishiy an'analar uzatuvchisi hamda davomchisi hisoblanadi.

Aqiqa. O'zbek oilalarida yangi tug'ulgan bolaga ism qo'yish va "qorin sochi" (bolaning tug'ulgandagi sochi) ga qaychi urish bilan bog'liq odat. Islom an'analariga ko'ra, odatda chaqaloq 7 yoki 14 yoxud 21 kunligida o'tkazish tavsiya etilgan. O'zbek xalqining qadimdan saqlanib kelinayotgan yana bir marosim **xatna qilish** (o'g'il to'yi) dir. Xalq o'rtasida xatna "sunnat to'yi", chupron "qo'lini xalolash (poklash)" kabi nomlar bilan yuritiladi.

Ajdodlarimizning rasm-rusmlari, dunyoqarashi, ishonch-e'tiqodlari, turmush-tarzi va hayot haqidagi falsafiy qarashlari, asrlar bo'yi jamlangan hayotiy tajribalari va turmush ko'nikmalarini o'zida mujassamlashtirgan eng jozibali marosimlardan biri ikki yoshni birlashtiruvchi—**nikoh to'yidir.** Bundanmaqsad nikohni jamoatchilikka ma'lum qilish va ota-ona, qarindosh urug'lar jamoa bilan birga nishonlashdir. Nikoh to'yi tizimida bir qancha marosimlar mavjud: sovchilik, unashtirish, uy ko'rar (qiz ko'rar), sep taqlar, to'qqiz berish (to'qqiz tovoq), qiz oshi, baqon tutish, yuz ochdi, kelin salom, chorlar, quad chaqirish kabi marosimlar va ular bilan bog'liq rasm-rusmlardir. Bularning aksariyati hozirgacha saqlanib, amal qilinib kelinadi.

O'zbek xalqi **motam marosimi**, inson vafoti bilan o'tkaziladigan marosimlardir. o'zbeklar marhum dafn etilgandan keyin, uni xotirlab bir qancha ehson marosimlari o'tkazilgan. Marhumning "uchi", "ettisi", "yigirmasi" va qirqi" ni o'tkazish yoki ruh (arvoq) larga atab qirqta chiroq qo'yish kabi e'tiqod va udumlar, aslida hech qanday ilohiy yoki shar'iy tamoni bo'lmagan, ular ibtidoiy davrlardagi e'tiqodiy qarashlar va sehri raqamlar bilan bog'liq qadimgi xalq qarashlari asosida paydo bo'lgan. Marosim va odatlarning ko'pchiligi, xalqimizning asrlar davomida amal qilib kelgan milliy qadriyatlaridir. Sovetlar davrida olib borilgan mustamlakachilik va agiestik siyosat natijasida ko'plab milliy an'anaviy qadriyatlarimiz bilan bog'liq an'analar va urf-odatlar ta'qib ostiga olinishi ma'lum ma'noda ma'naviy qashshoqlashishga sabab bo'ldi.

O'zbekiston milliy mustaqillikka erishgach, xalqning qadimiy va azaliy qadriyatlari asta-sekin tiklandi va ularning ko'plari xalqimiz turmush tarzidan o'zining munosib o'rnini topdi.

1.5. Milliy taomlar va pazandachilik

Oziq-ovqat inson hayotida, uning faoliyatida muhim o'rin tutadi. Shunga ko'ra odamlar taomlarning shirin va to'yimli, o'zlari yashab turgan iqlimga va geografik hududga mos bo'lishi uchun harakat qilganlar. Umuman olganda, o'zbek milliy taomlarining shakllanishi va rivojlanishi xalqimizning asrlar davomida bosib o'tganyo'li, turmush tarsi hamda etnik xususiyatlari bilan chambarchas bog'liqdir. Dasturxonimizdan mustahkam o'rin olgan taomlar asosan **xamirda tayyorlangan**. Xamirning asosiy xom ashyosi bug'doy, arpa, oq jo'xori uni bo'lib, ularda inson organizmi uchun zarur hayotiy unsurlar mavjud. Ular orasida bug'doy non shubhasiz eng ahamiyatlisi. Shunga ko'ra xalqimizda non, azaldan aziz va muqaddasdir. **Nonvoylar** to'y yoki bozor uchun yopiladigannonlarni yanada chiroyli chiqishini ta'minlashga harakat qilganlar. Xorazmda eng lazzatli **non** go'shtli **patir noni** juda mashhur va to'yimli hisoblanadi. Shuningdek, jizzali va qovoq aralashmasidan tayyorlangan nonlar ham tez-tez yopib turiladi. Ayniqsa, qovoq bilan qilingan zog'ora noni o'zining to'yimliliigi bilan ajralib turilgan. Nonvoylar gijda non, qo'shaloq shirmoy, yog'li kulcha, ko'mach kabi nonlarniyopganlar. Qizitilgan toshda non pishirish usulini ham bilganlar. Xuddi shunday qozon kabob, six kabob, quyma kabob, cho'pon kabob, xasib kabob, bug'lama kabob, tandir kabob, charvi kabob, jigar kaboblar milliy taomlar sirasiga kirgan. Go'sht va sabzavotlardan tayyorlangan armon qovurma, kaklik qovurma, bedana qovurma va boshqa qovurma taomlar ham xayotda muhim o'rin egallagan.

Sutli va qatiqli ovqatlar ham parxez taomlar sifatida muhim ahamiyatga ega bo'lgan. Xorazmda etnik taomlardan gumma, ushoq barak, tuxum barak, gukgumma, qayish, baliq sho'rva, jugari pirduk tayyorlangan. O'zbek xalq dasturxonini palovsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Palov tayyorlash xususiyati,

solinadigan masalliqning turlari jihatdan turli viloyatlarda bir-biridan farq qiladi. Umuman, palovning turlari ko'p bo'lib, shulardan eng mashhurlari safash palov, oshqovoq palov, to'ntarma palov, qazi palov, sarimsoq palov, qovurma palov, ivitma polovdir. Parxez ovqatlar tayyorlashda ham o'zbek xalqi jahonda eng pazandalardan hisoblanadi.

Qandolat va shirapazlik. Shirinliklar tayyorlashda ham o'zbek xalqi Sharq xalqlari orasida shuhrat qozongan. Bu kasb an'analari avloddan-avlodga o'tganligi sababli obi novvot, parvarda, pechak, qand, pashmak, lavuz xolva, nisholda kabi shirinliklari bilan dunyoda mashhur bo'lgan. Qandolatchilarning ko'pchiligi xalq tabobatini yaxshi bilgan bilganlar. O'zlari tayyorlaydigan mahsulotlarning inson organizmiga ko'rsatadigan ta'sirini o'rganganlar. Shuning uchun qiyom tayyorlaydigan qandolatchilar o'simlik urug'i va uning sharbatidan qiyom tayyorlashda foydalanganlar. Masalan, yantoq o'simligi o'zining issiq kunlari o'zidan sarg'ich rangli yopishqoq shira ajratib chiqargan, kechqurun issiq pasaygach, uning bargi va poyalaridagi shira qotib donachalarga aylangan. Uni yig'ishtirib, tozalangan, qaynatilgan va shifobaxsh dori o'rnida ishlatilgan. Xalqimiz xilma-xil murabbolar tayyorlashda ham juda pazanda. Ajdodlarimiz barcha taomlarni asosan ikki xil – issiqlik va sovuqlik ovqatlarga bo'lishgan. Bunday bo'linish parxezdagi kishilar uchun muhim agamiyatga ega bo'lgan.

Dasturxon va uning atrofida shakllangan qadriyatlar. O'zbek xalqining turmush tarzini uning sharqona dasturxonimizsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Dasturxon atrofida o'zbek xalqining samimiyati jo'sh urib turadi, insoniy milliy qadriyatlarimizning ham moddiy, ham ma'naviy ko'rinishlari oshuxta va mujassam xolatda yuzaga chiqadi. Turli ruhiy holatdagi insonlar ham dasturxon davrasini hurmat qilib, bir-birini iliq so'zlar bilan alqaydilar. Shunga ko'ra xalqimiz dasturxonni aziz, nuqaddas, rizq-ro'z manbai, ramzi deb biladilar. Dasturxon odobi, taom emak qoidalariga ajdodlarimiz qanday amal qilib kelganlar. Dasturxon fayzi nondir. Shuning uchun dastavval non, so'ngra uni bezaydigan qand-qurs, mevalar, turli murabbolar qo'yganlar. Taomilga ko'ra tanavul qilishni yoshi ulug' kishilar boshlab beradi. Mehmondorchilik insonning, oilaning, qabila va xalqning

odamiylik, saxovat, manbasi va ma'naviy aloqasi – muloqat mezonini sifatida qaralgan. Shunga ko'ra "Mehmon otangdan ulug', mehmonxonang tor bo'lsa ham, diling keng bo'lsin" deyishlari bejiz emas.

1.6. San'ati va madaniy – ma'rifiy muassasalari

Me'morchilik san'ati (arxitektura) – mohiyat - mazmuniga ko'ra o'tmish davrlarning mahobatli ko'zgusi, buyuk bunyodkorlik san'atidir. O'zbekiston me'morchiligi qadimiy tarixga ega. Ibtidoiy davda odamlar qurgan ilk turar joylar shox-shabba va qamishdan ishlagan konussimon olachiq, chaylalardan iborat bo'lgan. Keyinchalik yog'och konstruksiyalar bilan mujassam tosh, guvala uylarning yangi tur vaq shakllari vujudga kelgan.

Jez davrida O'zbekiston hududining janubida murakkab me'moriy inshootlar ilk shaharsozlik asoslari barpo qilingan (Sopollitepa va boshqalar). O'sha davr binolarida me'morchilikning san'at sifati namoyon bo'ldi. Buxoro vohasida Qizilqir tepa qaridan topilgan paxsa devorli qo'rg'on tarxi, Chust madaniyatiga oid uy-joy qoldiqlari shu davr arxitekturasini shakllanishidan namuna bo'lib qolgan.

Temir davri va keying asrlarda O'zbekiston hududida anchaya murakkab shakldagi qo'rg'on, shaharli qal'alar bunyod etilgan (Bandixon-tepa, Kuchuk-tepa, Qo'yqirilgan qal'a, Jonbas qal'a va boshqalar). Ularni o'rab turgan baland muhofaza devorlari – rivojlangan fortifikatsiya, shoxona saroylar, hatto koinotni kuzatuvchi (rasatxona vazifasini bajarishga moslashgan) bin ova inshootlar diqqatga sazovardir. Vodiy va voxalarni qo'riqlash uchun qurilgan ulkan mudofaa devorlari va ular tarkibidagi qo'rg'on qal'alar (Buxoro atrofidagi Kampir devor, Qashqadaryodagi Chimdevor va boshqalar), soqchilar turadigan qoravulxona – qorovultepalar, do'nglar, burjlar va boshqa aloqa mudofat vositalari me'moriy taraqqiyotning uzoq davrlardan darak beradi. Tavoiz shahri yonidagi Shahri Vayron tepaligi anashunday chegara manzilida paydo bo'lgan ulkan mudofada inshooti tarkibiga kirgan. Binokorlikda asosan yog'och, loy, paxsa, guvala, xom g'isht qo'llangan. Tupqoqqal'a, Varaxsha, Bolaliktepa, Fayoztepa, Xolchayon,

Farg'ona vodiysidagi Quva qal'a binolari ichidagi saroylar yirik devoriy rasm, hayvon va bo'rtma o'ymakor bezaklar bilan serxoshiyali ishlangan.

Aleksandr Maqduniy O'zbekiston hududida mustahkam qal'aband shaharlar, qo'rg'on mudofasiga uchradi. Jumladan, Samarqand (Maroqandda) shahri mudofasi fortifikatsiyasini engish uchun ko'p urundi. O'sha davr shahar uzunligi 70 stadiy (12-12,5km) bo'lgan ikki o'ram devorlar bilan qal'aband bo'lgan. Jahongir sarkarda O'rta Osiyoda jangovor saklar hamlasidan himoya uchun maxsus harbiy qal'a shaharlar qurdirgani ma'lum. Yunon madaniyati ta'siri ayniqsa yangi paydo bo'lgan Yunon – Baxtriya (Balx) davlati xududlarida me'moriy san'at namunalarida yorqin namoyon bo'ldi. Kushon podsholigi davrlarida O'zbekistonning janubida Budda ibodatxonalari (vixara va boshqalar) budda rivoyatlari mazmuni aks ettirilgan tosh haykallar bilan bezalgan (Dalvarzintepa, Fayoztepa va boshqalar).

Eftalitlar davri me'morchiligi qasirlar qurish alohida o'rin tutgan. Bu davirda qishloqlarda qasr, qo'rg'on va qo'rg'oncha nomlari bilan ataluvchi istehkomlar qad kutaradi. Bunday imoratlar xom g'isht va paxsalardan ishlab chiqilgan baland tagkursi ustiga bino qurilgan. Qasr atrofi qalin va baland devor bilan o'rab olinib, devorlar bir necha qator shinak – tuyniklari – tirkash, burchaklarida esa baland minoralari bo'lgan. Ko'shk va qasr ichida turar joylar, omborxonalar, qo'rg'on ichida esa chorakarlar uchun yotaxona va oshxonalar bo'lgan. VI – VIII asrlarda Kesh, So'g'd, Toxariston, Chog'oniyon, Davon, Shosh kabi o'lkalarda ko'plab diz, qal'a, qo'rg'on, shahristonlar barpo etidi. Shaharsozlikning o'zagi bo'lgan shahristonlar, ular atrofidagi rabotlar, bog'u – rog'lar, asosan sersuv manzillarda bunyod etilgan. Shahriston qurilishi qadimgi Samarqand (Afrosiyob), Varaxsha (qadimgi Panjakent) shaharlaridagi arxeologik tadqiqotlar orqali o'rganilgan.

Turkiston yaylovlarida yashagan charvodorlar engil tezda tiklab yig'ishtirib olsa bo'ladigan uylarning (umumlashtirib yurt deb atalgan) ajoyib tur va shakillarini yaratgan.

Turkiston monumental arxitekturasida ko'shk shaklida rivojlandi. Ko'shk V-VI asrlarda bog' ichkarisidagi engil konstrukttsiyali ustun, ayvon va ochiq bolxonalari bo'lgan, zebu-ziynatli bo'lgan ko'rkam imoratlarni bildirgan. Ko'shklar dastlab yog'ochdan sinchlar tarzida, keyinchalik xom g'isht bilan omuxta qurilgan. Qurilishda ravoq, gumbaz va ustunlar bezaklar qilib, ishlanib, yog'och va ganch o'ymakorligida o'ziga xos me'moriy maktab yuzaga keldi.

Islomiyat (VII asr) davridan boshlab mahalliy me'moriy uslubda keskin burulish sodir bo'ldi, mutloq yangi tartib va tarkibdagi bino-inshoatlar (masjid, madrasa, maqbara, minora, xonaqoh, rabot va h.k.) shaharlar shakl topdi, yangi bezak tur va uslublari (islomiy, girix, xatyui, maqarrias va boshqalar) paydo bo'ldi. Ayni vaqtda mahalliy san'atdagi haykaltaroshlik, devoriy tasvirlar islom dini ta'limotiga begona sifatida amaldan chetda qoldi, hatto butunlay man etildi.

IX – XII asrlarda shaharsozlik keng miqyosida rivojlanib, masjid, minora, maqbara va madrasalar qatorida toqu ravoqli tishlar, turar joy va ustaxonalar: saroy va hammomlar qurishga e'tibor berildi. Shahar aholisini oqar suv bilan ta'minlash uchun ariq, anhorlar qatorida tosh, spool hatto mis quvurlardan foydalanilgan. Sardoba, hovuz, quduq, yer osti kanallari – korizlar, band va to'g'onlar qurilgan. Maqbaralar to'rt ustunli, gumbaz toshli, qanoslari ganchkash bezakli, pishiq g'ishtdan to'rsimon naqsh hosil qilib (Ismoyil Samoniy maqbarasi) oldi peshtoqli (Arab ota maqbarasi, Mir Said Baxrom maqbarasi) ikki xonali (Sulton Saodat majmui) qilib qurilgan.

X asrdan binokorlikda sinchkori imoratlar keng tarqalgan. Yakkasinch va qo'shsinchli binolarning tagsinchlaridan tortib, ustunlariyu, sarrovalr va to'sinlarigacha yog'ochlarni payvandlash uslubida qurilib, sinchlarning orasi ham g'isht yoki guvala bilan urib chiqilgan. Bu tuzulishdagi imoratlarni qurish hozirgacha saqlanib keldi. Afrosiyob, Varaxsha, Buxoro va Poykent kabi shaharlar IX–XI asrlarda ham paxsa va xom g'ishtdan qurilgan imoratlar shahar me'morchiligida asosiy o'rin tutgan. Deraza o'rnida ishlatilgan ganch panjaralariga rangdor shishalar solingan. Turar joy sahni ko'pincha naqshli qilib to'shalgan pishiq g'ishtlar bilan qoplangan.

XIII–XIV asrlarda mo'g'illar istilosi natijasida ancha obod shaharlar Go'rganj, Buxoro, Samarqand, Termiz vayronaga aylandi, arxitektura – binokorlik butunlay barbod bo'ldi. Faqat Amir Temur davriga kelib Turkiston me'morchilik san'ati yangi sifat, yangicha nafosat bilan o'z jamolini ko'rsata boshladi.

XIV asr ohiri–XV asr boshlaridagi me'morchilik o'zining hashamatliligi, muxandislikkishining yuksakligi, serhasham bezatilishi bilan ajralib turadi. Aholi zich joylashgan manzilgahlarda chorus, tim, toqlar, hammom, shuningdek, masjid, madrasa va xonaqohlar, shahar tashqarisida yirik chorbog'lar, nomozgoh masjidlar qurildi.

Kesh–Shahrisabz Amir Temur inoyati bilan qisqa muddatda misli ko'rilmagan darajada o'zgarib, “Qubbatul ilm va l-adab”, ya'ni ilm va odob jonlangan ma'vo unvoni bilan mashhur bo'ldi. Shahrisabzdagi shahar devorining balandligi 11 m, eni 5 m bo'lgan, atrofiga xandak qazilib osma ko'priklar qurilgan. Sdhaharda Oqsaroy, Chorsu, Dor us-saodat va Dor ut–tilovat ansambillari va boshqa yirik binolar barpo etilgan.

Samarqand Amir Temur saltanati poytaxt sifatida me'moriy jihatdan misilsiz darajada qayta yuksalib yangidan qad ko'tardi. XIX asr ohiri–XX asr boshlarida O'rat Osiyoni Chor Rossiyasi bosib olgach (1860-1880 yilar), O'zbekistonning yirik shaharlari Toshkent, Samarqand, Buxoro, Qo'qonda rus harbiy muxandis va me'morlari loyihalari asosida ma'muriy va turar joy binolaqri qurildi.

1917 y –oktiyabr to'tarishi oqibatida ayniqsa, fuqarolar urishi davomida buxronga uchrab, qashshoqlikda qolgan o'lka arxitekturasi tamoman tanazzulga cho'kdi. 1930 yildan boshlab zamon ijtimoiy talablari asosida yangi tipdagi binolar qurila boshladi: kommuna uyi, ishchilar shaxarchasi, maktab, bolalar bog'chasi, ishchi – yoshlar kulibi, istirohat bog'i, kinoteatr, muzeylar barpo bo'ldi.

Mustaqillik yillarida O'zbekistonda arxitektura – qurilish ishlarida milliylik, sharqona uslublar bilan bezash ishlariga katta e'tibor berilmoqda.

O'zbek xalqining uy–joylari va jixozlash an'analari. O'zbek xalqi uy-joy buyod qilishda tabiiy sharoit va fasllar almashinuvini birinchi navbatda hisobga olgan. Har bir viloyatning xalq an'anaviy usulida asoslangan me'morchilik

maktabi bor edi. Jumladan, Toshkent, Buxoro, Farg'ona, Xorazm va Shaxrisabz maktablari mashhur bo'lgan. Tog'li hududlarda qor yomg'irk o'p yog'ishi va zilzila xavfi mavjudligi uchun ko'pincha qo'shustunli uylar qurish, Xivada esa bir qator sinchli imorat qurish rasm bo'lgan. Yog'ingarchilik ko'p bo'ladigan tog'li hududlarda uylar tomi qalin lombos qilingan. Uyning romlari ichki tomondan qo'yilgan. Qo'shni tomon derazasiz devordan iborat bo'lgan. Boy va o'ziga to'q oilalar hovlisi ikki: ichki va tashqi qismdan tashkil topar edi. Hovlining ichki qismi bolalar va ayollar uchun bo'lsa, hashamatli, bejirim xonalardan iborat tashqi qismni mehmonlar, keldi-ketdi uchun mo'ljallangan. Hunarmandlar hovlilari o'z kasbiga moslab qurilgan bo'lib, do'kon va shogirdlar yahsaydigan xonalar ham tashqarida bo'lar edi. Ular oilaning soniga qarab, bir necha xona, ayvon, xo'jalik xonalari, oshxona, mehmonxonalardan iborat bo'lgan. Aholi zichroq bo'lgan shaharlarda ularning mehmonxonalari ko'pincha ikkinchi qavat bolaxonasida joylashgan. Qadimgi uy-joylar asosan poydevorsiz qurilgan. Imorat o'rni tekislangach, somon, qamish yoki chipta yoyib, paxsa devor ko'tarilgan. Ayrim xollarda zaxga qarshi tosh, g'o'la va pishgan g'isht qo'llanilgan. Tomni yopishda dastlab, bolor yog'ochlar qo'yilib, ustidan vassacho'plar terilgan yoki qora tol shox-shabbalar yoyilgan, uning ustidan esa bo'yra to'shalib, so'ngra lo'mbas qilingan. Tom usti somon suvoq bilan suvalgan. Yomg'ir suvlari oqib ketishini ta'minlash uchun yog'och yoki spool tornovchalar o'rnatilgan.

Tashqi ko'rinishi oddiy bo'lishiga qaramay ularning darvozalari va eshiklariga naqsh berish odat tusiga kirgan. Ularga jes yoki temirdan yasalgan xalqasimon baldoq osilgan. Uyga kiradigan joyida to'g'ri burchakli poydak bo'lib, unga oyoq kiyimlari echilib kirilgan. Eshik oldidagi burchakda foydalanilgan suvni oqizadigan joy bo'lib, bunday hovuzchasimon suv to'kkichlar Samarqand va Buxoro tomonlarda marmar toshlardan, Xivada esa sopol bo'laklaridan tayyorlangan. Oqova suv, uy ostidagi maxsus sopol quvurlar yoki karpich (g'isht) ariqchalar orqali tashqariga chiqarilgan.

Iqlim sharoitidan kelib chiqqan holda ayvonlar katta ahamiyatga ega bo'lgan. Unda jazirama issiqda dam olinar, qishda esa qishki xonalar asqotar edi. Xorazmda

ayvonlar baland va kengligi bilan ajralib turgan. Shuningdek, Xorazmda yozning o'ta issiq kelishi bois qariyb har bir uy oldida hovuz va uning atrofida g'ujumlar o'stirilgan. G'ujumlar havoni salqinlatuvchi va toza kislorod ishlab chiqarish xususiyatiga egaligi bilan noyob daraxt sirasiga kiradi. Shunga ko'ra Xorazmni g'ujumlar diyori deb bejiz aytilmagan.

Xonliklarning asosiy qismi aholisi qishqi xonalarni sandal yordamida isitsa, Xorazmda mo'rini choqdan foydalanilgan. O'zbek xalqi qadimdan o'z hovlisini toza, saranjon–sarishta saqlashga intilgan. Shuningdek, avlodlarimiz go'zallikka oshufta va moyil bo'lganligi bois, har bir oila o'z hovlisini chiroyli qilib bezash, garchi oddiy bo'lsada ko'rimli qilishga harakat qilgan. Ularning devorlari bo'ylab to'g'ri burchakli yoki gumbaz shaklida bir necha taqmon, ular o'rtasida esa tokchalar qurilgan. Ularga ko'rpa–to'shaklar, uy–ro'zg'or buyumlari joylashtirilgan. Boylarning uylari naqshinkor qilib bezatilar, eriga g'isht terilib yoki pol qilinib, uning ustidan bo'yra chipta, so'ngra kigiz yoki polos to'shalib, uning ustidan Turkman yoki Eron gilamlari yoyilar edi. Chiroyli ko'rpacha, bolishlar sandiq ustiga taxlab qo'yilgan.

Ko'chmanchi O'zbek qabilalari ham o'tov uylardan foydalanganlar. Uyning qulay tomoni shundaki, qishda ichida olov yoqish, yozda esa salqinlatish sharoitini yaratishga moslashgan. Umuman xalqimizda “o's uying, o'lan to'shagging”, “vatan ostonadan boshlanadi” kabi naqillar beg'izga aytilmagan. Shu bois ota–bobolarmiz ostonani muqaddas bilib, uning birinch xatlab kiradigan eshigini past qilib qurganlar. Unga xurmat yuzasidan egilib kirib, egilib chiqqanlar. Uy ostonasidan g'udayib kirish va mag'rurona chiqishni also ep ko'rmaganlar. Bu umri ohiriga qadar manon bo'lgan joyga katta hurmat, ajdodlarimizning vatanga sadoq ramzi edi.

1.7. Milliy-kiyim kechaklar

Xalqimizning kiyim–kechaklari ularning yashash tarsi va udumlarica hamohang va mos bo'lgan. Kiyimlar asosan ish sharoiti va uyga kiyiladigan kiyimlar, mehmondorchilik va marosimlardan kiyiladigan kiyimlar, hamda harbiy jangovor kiyimlardan, tarixiy–an'anaviy, milliy liboslar ega ustki ko'ylak, ishton,

chopon, do'ppi "taqiya", kalish-maxsi va etikdan iborat edi. Biloyatlar bo'yicha O'zbek milliy kiyimlari xususiyatiga ko'ra o'xshash bo'lsa-da, ammo etnik tafovutlarlar jihatdan ko'rinishi shakli, rangi bilan farq qilgan. Chunonchi, Buxoro, Qashqadaryo, Surxondaryo va Zarafshonda uzun va keng, uzun engil, paxta yoki yarim ipak rangli matodan tikilgan chopon yaltiroq olachadan tikilgan, biroz tor, kalta kamar yo'lli Xorazm choponi shular jumlasidandir. Ayollarning oziga xos chopon shaklidagi tikilgan ust kiyimlari mustak deb atalgan. Ular Buxoro, Xorazm va Qashqadaryoda yengi tirsakkacha kalta va kengligi bilan, Samarqand va Toshkenda uzun, engsiz, bilakkacha, bo'lgan eng bilan farqlangan. Xorazm O'zbek ayollari ipakdan tikilgan doirasimon shakildagi gulli taqiya (do'ppi) da ipdan yoki chiroyli qush patidan (unpar) popuk taqqanlar, gir atrofidan kumush tangalar osganlar. Taqiya ustidan ro'mol yopganlar. Erkaklar boshiga chog'irma kiyishgan. Qishda qo'y terisidan tikilgan sangsang po'stin kiyganlar. Bu Xorazmning qahraton sovug'idan himoyalovchi asosiy kiyim hisoblangan. Salla o'rash ham qadimiy urf-odatlar sirasidan bo'lib, undan bayram va marosimlarda ko'proq foydalanganlar. Sallani ayol birinchi farzand ko'rishda o'ragan. Qizlar va ayollar soch o'rimlarida ham farq bo'lgan. Kelinlar farzandli bo'lguncha qirq o'rim soch, ayollarda ikki o'rim soch qo'yish odat bo'lgan. Go'dak tug'ilishi bilan unga atab kiyim tikilgan. Bunday ko'ylakni etti uydan to'plangan matodan tikib, chillasi chuqquncha kiygizish odat bo'lgan. Shunga ko'ra chilla ko'ylak deb bejiz aytilmagan. Bolaga ko'z tegmasin deb ko'ylakni it yoki qayroq toshga surkaganlar. Bir yoshga etgan bolaga to'g'ri bichim usulida tikilgan ko'ylak, qishda issiq guppiga, to'nga kiygizilgan. Bolaga to uch-to'rt yoshga etguncha, etikcha ham tikilgan.

Taqinchoqlar va pardoz turlari. Turkiy xalqlarda (ayollar) zeb-ziynat va pardoz – andoz ishlariga qadimdan e'tibor berishgan. XIX asr o'rtalarida taqinchoqlarning rang-barang turlaridan foydalanishga e'tibor yanada oshdi. Taqinchoqlar tayyorlash bilan asosan **zargar ustalar** band bo'lishgan. Ayollar uchun ishlangan zargarlik buyumlari xilma-xil va rang-barang bo'lgan. Ular bilan bosh va ust kiyimlar bezatilgan. Ushbu sohaning Xorazm, Farg'ona, Toshkent,

Buxoro, Surxondaryo kabi mashhur maktablar bor. Ularda bejirim va nafis bo'lgan taqinchoq xillari: bo'yin va ko'krakka taqiladigan poypancha arpa jiyak, zebgardon, nozigardon, tumor, bozvand, tillatumorcha, bo'yin tumor, ko'krak tumor, zarkokil tanga cho'lpi, peshonaga taqiladigan tilla bargak, tillaqosh, jiga parsox po'pik, naycha shapo'pik, panjara shopo'pik, besh kokil, qubballi shopo'pik, burunga taqiladigan aravak va boshqa xillari yasalgan. **Isirg'alarning** ham ko'plab turlari mavjud bo'lgan: kana zirak, Turkiston baldoq, qashqor baldoq, zulikzirak, oybaldoq, Farg'onacha baldoq, Toshkent baldoq, shalldiroq baldoq, ko'zli zirak, arava baldoq, anjir baldoq. **Uzuk turlaridan:** afg'oncha uzuk, ko'zsiz uzuk, rumcha uzuk, ayriband uzuk, shaxonak, qiyma uzuk, o'rama uzuk, mis uzuk, tilla uzuk, xoji uzuk. **Bilag uzuk** turlari: siqma bilaguzuk, qoshqar shoxli rosmona bilaguzuk, cho'g'roq bilaguzuk, ilonbosh uzuk, bodomcha bilaguzuklar. Zebziynatlarga zargarlar o'yma usulda yasagan turli rangdagi toshlar: marjon shisha, sadaf kabilar bilan naqsh berganlar.

Toshkentda durdan yasalgan munchoq marjon, zumrad va shishadan ishlangan isirg'a uzuk va bilaguzuk taqish rasm bo'lgan. Buxoroda oltin isirg'a shibirman, yaproqsimon shaklda katta yoqut rasm bo'lgan.

Hunarmandchilik va uning turlari. O'rta Osiyo xalqlari turmushida hunarmandchilik muhim va qadrlanadigan mashg'ulot hisoblangan. Xalqda hunar egasini e'zozlab, usta deb chaqirishgan. "Yigit kishiga etti hunar ham oz" maqolining tez-tez tilga olinishi bejiz emas. Hatto kasb-hunarli kishilarning hunar kuchi, aql-idroki bilan hayotdagi turli mashaqqatlarni bartaraf qilishlari og'zaki ijodga ko'chib, afsonalardan ertaklarga o'tgan. O'rta Osiyo qadimdan hunarmandchilik markazlaridan biri bo'lib ketgan. Hunarmand bobolarimiz yasagan buyumlar shu bois jahon bozorida raqobatga asrlar osha bardosh berib kelgan. XIX asrning ikkinchi yarmida hunarmandchilik sohasining **metallga** ishlov berish yo'nalishi muhim o'rin tutadi. Ular orasida **temirchilik** keng tarqalgan. Temirchilik ustaxonalari hunarmandchilikning turli sohalarini, quruvchilarni, qishloq xo'jaligini asbob-uskunalar bilan ta'min etgan. Duradgorlar uchun tesha,

arra, bolta va boshqa asbob–uskunalar tayyorlangan. Dehqonchilik qurollaridan ketmon, o'roq, tok qaychi, chalg'ilar yasalgan.

Orta Osiyo hududlari konlarida oltin, kumush, mis, temir, qo'rg'oshin va boshqa rangli metallar hamda zumrad, feruza kabi qimmatbaho toshlar qazib olingan. Qurama tog'larida minerallar ko'p bo'lgan. Qo'qon xonligida neft qazib olingan. Chustda va Andijonda temirchilik rivojlangan bo'lib, qurol–aslahalar tayyorlangan. Buxoro amirligida oltin, kumush, qimmatbaho toshlar, qo'rg'oshin, mis qadimdan qazib olingan. Xivada ham temirchilar o'ziga xos buyumlar yasashga ixtisoslashgashgan.

Hunarmandchilikning keng tarqalgan sohalaridan biri **harrotchilik** edi. Harrotlar ip yigirish uchun charx, bolalar beshigi va belanchak, chilim va yog'och laganlar ishlab chiqarar edilar. Xivada alakchilik (elakchilik) rivojlangan bo'lib, bu hunarmandlar butun bir mahallani tashkil qilgan. Shaharlarda **paxtani qayta ishlash va to'qimachilik** hunarmandchiligi rivojlangan. Paxta tolasi yigirilik undan bo'z va aloqa to'qilgan. To'qimachilikning o'sishi bo'yoqchilikning vujudga kelishida muhim ro'l o'ynaydi. Shaharda sovun, sham, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish mavjud edi. Buxoro, Samarqand, Qo'qon, Marg'ilon, Namangan kabi shaharlarda shoyi, xonatlas, konoviz kabi o'zbek an'anaviy shoyi gazlamalari, beqasam, banoras, adras kabi yarim shoyi gazlamalar bilan birga ip gazlamalar⁴, bo'z dona va boshqalar tayyorlangan. Gilam to'qish, chopondo'zlik, kashtachilik, do'ppi tikish namat tayyorlash ham hunarmandchilikning muhim rivojlangan turlaridan edi.

Xalq amaliy san'ati. Xalqimiz doimo tabiat go'zalligidan zavq olgan. Uning go'zalligi, betakrorliginafaqat istedodni badiiy tasvirlarda ifodalash bilan cheklanmasdan, ularni turli matolar, gilamlar, kulolchilik, miskarlik buyumlari, marmar va yog'ochga nafis chiziqlar orqali ifodalashga intilgan. Bu sohada ham har bir viloyat, tuman o'zining mashhur markazlarini yaratgan.

O'zbek ayollari so'zana va kashtachilikda o'ta didli, jumladan, tabiatning go'zal manzaralarini gulzor, gullagan bog'ning bir ko'rinishini yangi, ijodiy–badiiy talqinlarda ifodalashga intiladilar. Ular so'zama, kashta tayyorlar ekanlar,

tikayotgan ishlariga o'zlarining qalb dunyosidagituyg'ularini ham sngdirib, turli ranglarda jilo berganlar. Ularning mashaqatli mehnatlari tufayli mazkur sohalar amaliy sanat darajasiga ko'tarildi.

Amaliy bezak san'atida avvalo davr ruhi o'z ifodasini topdi. Mis buyumlarining qandari naqshlarga hayvon, qush, baliq, mashhur me'moriy obidalar va boshqa naqshlarni tushirish keng tus olgan. Rishton, Xorazm, G'ijduvon sopol idishlarida musiqa asboblari, pichoq, miltiq, kosa, choynak, hayvonlar, qushlarni tasvirlash an'anaga aylana bordi. **Yog'och o'ymakorligi** sohadagi o'yima naqsh berishda katta yutuqlar qo'lga kiritildi. Unda xo'jalik yog'och o'ymakorligidan mashhur usta Abdusattor va usta ota polvonlarnng xizmatlari katta bo'ldi. Ro'zg'or buyumlari, uy jihozlari, musiqa asboblari bezashda ustalar quyma, bo'yama va qadama usullardan unumli foydalanganlar.

Xalq o'yinlari. O'zbeklar yurti xilma-xil xalq o'yinlariga boy o'lka hisoblanadi (arg'umchoq, bekinmachoq, oqterakmi-ko'kterak, tortishmachoq, chillak, podachi, bo'ri keldi, xo'roz va tovuq, oqsoq bo'ri va qo'ylar, olmon poyga, bo'ron, qirqtosh, cho'nqa chuvoq, otib qochar, soqqa, bir tayoq, elkada kurash, mindi va h.k.). Bu o'yinlar odamlar salomatligini mustahkamlashga xizmat qilishi bilan birga sport turlari paydo bo'lishiga zamin yaratgan.

Istiqlol davrida milliy qadriyatlarni qaytadan tiklash boshlandi. 1993 yillarda Jizzax viloyatining Forish tumanida xalq o'yinlari sayli o'tkazildi. 1994-1996 yillarda shu maskanda xalq o'yinlari va milliy sport turlari bo'yicha respublika musobaqasi tashkil qilindi. Ularda unitilayotgan ommaviy o'yinlar va milliy sport turlari nomoyish etildi, ayrimlari bo'yicha qiziqarli musobaqalar uyushtirildi. Aynan shu musobaqalardan o'rin olgan turlar bo'yicha mamlakatda "Alpomish o'yinlari" (1998–Termiz; 2000–Farg'ona) va ayollar o'rtasida "To'maris o'yinlari" (1999–Jizzax, 2001–Shahrisabz) festivallari bo'lib o'tdi. O'quvchilar o'rtasida xalq o'yinlari va milliy sport turlari festivali o'tkazila boshlandi (2005 - Jzzax). Qadimiy kurashning xalqaro andozalariga moslashtirilgan qoidasi ishlab chiqildi va shu qoida asosida musobaqa tashkil etildi (1991- Miroqi), 1992 yildan Shahrisabz, Buxoro, Termiz, Xiva va Andijon shaharlarda xalqaro musobaqalar

uyushtirildi va bu davrda xorijdagi nufuzli sport anjumanlarida kurash keng targ'ib qilindi. 1998 yil 6 sentyabrda Toshkentda 29 davlat vakillari, kurash xalqaro asotsatsiyasi (KXA) ga asos solindi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "xalqaro kurash asotsatsiyasini qo'llab-quvvatlash to'g'risida" gi (1999 yil 1 fevral) farmoni kurashni dunyoda rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi.

Madaniyat va istirohat bog'lari. O'rta Osiya xalqlari qadimdan bog' tuzish san'ati an'alariga ega. VIII asrda arab sayyohlari O'rta Osiyo (Samarqand kabi) shaharlari bog'larga burkanganligini ko'rib hayratda qolganlar. XIV asrning ohiri XV asr boshida Amir Temur bog'lari Samarqand atrofida bunyod etilgan. Amir Temurning saylgoh bog'lari asosan ikki xil usulda chorbog' va qo'riqxonalar tarzida tashkil etilgan. Chorbog'lar tarxi mutanosiblik asosida to'g'ri geometrik shakllardan tuzilgan tartibli gulzor va mevazorlardan iborat bo'lgan. Qo'riqxonalar tabiatning xushmanzara bag'rida barpo etilgan bo'lib, ularda tabiiy daraxtzorlardan foydalanilgan, umumiy maydoni esa qisman obodonlashtirilgan.

XVII–XIX asrlarda Buxoro amirligi (Sitorai Moxi Xosa kabi), Xiva (Qubla toza bog', Rofanak va boshqalar) Qo'qon xonliklari shahar tashqarisida chorbog'lar barpo etilgan. Mustaqillik yillarida madaniyat va istirohat bog'lar maxsus loyihalar asosida qayta ta'mirlandi.

Muzeylar. Dastlabki muzeylarni tashkil etish va boyitishda taniqli rus olimlari V. Oshanin, N. Maev, V. Viyatkin, N. Severtsov va boshqalar katta hissa qo'shdilar. Ular o'lkani miniralogiya, zoologiya, numizmatika, etnografiyasi, flora va fauna dunyosiga oid ajoyib boy kalleksiyalar to'plagan. 1876 yil Toshkent, 1896 yil Samarqand, 1899 yil Farg'onada o'lkashunoslik muzeylari ochildi. 1920 – 1930 yillarda Namangan, Xiva, Buxoro, Qo'qon, Andijon, Termiz, Nukus va boshqa yirik shaharlarda o'lkashunoslik muzeylari ochildi. Muzeylarning davlat boshqaruv tizimi shakllandi, tarixiy yodgorliklar va san'at obidalarini muhofaza etish komissiyalari (Turkkonstars–1922, Uzkomstari-1924) tashkil etildi. Bular mamlakat bo'ylab ilmiy ekspiditsiyalar uyushtirib, muzeylar uchun materiallar to'pladilar. 1975 yilda 34 ta davlat muzeyi mavjud bo'lib, shulardan 4 tasi tarixiy, 4 ta memorial, 2 ta san'at va 15 ta o'lkashunoslik muzeylari edi. Xiva (1969),

Samarqand (1982), Buxoro (1985) qo'riqxonalar tashkil etildi. Ular arxeologik, etnografik, madaniy–badiiy, me'moriy yodgorliklarni kompleks tarzida o'rganish va tashviqot qilish uchun mo'ljallangan.

Mustaqillik davrida asrlar davomida yaratilgan bebaho ulkan ma'naviy va madaniy merosni tiklash davlat siyosatining eng muhim vasifasi qilib qo'yildi. O'zbekiston hukumati tomonidan bu sohaga oid maxsus qarorlar qabul qilindi ("Muzeylar faoliyatini tubdan yaxshilash va takomillashtirish to'g'risida"gi–1998 yil).

II BOB. SURXONDARYO VILOYATINING MADANIY TURISTIK OBJEKTлари VA ULARDAN FOYDALANISH

2.1. Viloyatning tabiiy va iqtisodiy sharoiti hamda ularning turizmning rivojlantirishdagi ahamiyati

Geografik o'rni. Surxondaryo viloyati respublikamizning eng janubida joylashgan subtropik iqlimli o'lkadir. Viloyat hududi sharqda Tojikiston Respublikasi, g'arb va shimoliy-g'arbda Turkmaniston Respublikasi va Qashqadaryo viloyati bilan, janubda esa Amudaryo orqali Afg'oniston bilan chegaradosh.

Viloyat 1941 yil 6 martda tashkil topgan bo'lib. Uning maydoni 20,8 ming km². Surxondaryo viloyati ma'muriy jihatdan o'n to'rtta tumanga bo'linadi. Ular quyidagilar, Angor, Bandixon, Boysun, Denov, Jarqurg'on, Muzrobot, Oltinsoy, Sariosyo, Termiz, Uzun, Sherobod, Shurchi, Qizariq, va Qumqurg'on. Viloyat markazi Termiz shahri bo'lib, unda 120 mingdan ko'proq aholi istiqomat qiladi. Termizdan poytaxtimiz Toshkent shahrigacha bo'lgan masofa 708 km.ga teng. Viloyat aholisi 1800 ming kishini (2010) tashkil etadi. U respublika hududining 4,6% ini tashkil etgani holda aholisi 7,2% ga teng. Viloyatga bo'ysunuvchi shaharlar soni 2 ta (bular Termiz va Denov). Tumanga bo'ysunuvchi shaharlar esa 6 ta. Aholi zichligi 1 km² ga 85,1 kishi.

Tabiiy sharoiti va boyliklari. Surxondaryo viloyati O'zbekistonning eng janubida Surxon–Sherobod vodiysida joylashgan. Viloyatning hududi uncha katta bo'lmasa ham uning tabiiy sharoiti respublikamiz boshqa viloyatlaridan o'ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadi. Uning hududi shimoldan–janubga Amudaryo sohillari tomon pasayib boradi. Iqlimi quruq subtropik bo'lib, nafaqat O'zbekistonda, balki MDH ning eng issiq hududlaridan biridir. Shu sababli, bu mintaqa O'zbekistonning asosiy ingichka tolali paxta bilan hamda subtropik ekinlar rayon hisoblanadi.

Surxondaryo mintaqasida shimol va g'arb tomondan tog'lar bilan o'ralganligi uchun shimoldan keladigan sovuq havo va g'arbdan keladigan iliq havo massalari kirib kela olmaydi. Shu sababli yog'in miqdori kam. Yiliga 130-190 mm atrofida yog'in tushadi. Eng ko'p yog'in tog' etaklariga tushadi – 600 mm atrofida. Yog'in kamligidan sun'iy sug'orishga ehtiyoj katta bo'lib, Surxondaryo, Sherobodaryo, Amudaryo suvlaridan unumli foydalanishga majbur bo'ladi. Mintaqaning tuproq usimlik va hayvonot dunyosi tekislikdan tog'larga tamon o'zgarib boradi. Tekisliklarda sug'orib dehqonchilik qilinsa, tog' yonbag'irlarida lalimikor dehqonchilik rivojlangan. Viloyatda mineral resurslari xilma–xil, ayniqsa yoqilgi turlarida neft, gaz, toshko'mir, kimyoviy xom ashyolardan mineral tuzlar, oltingugurt hamda shifobaxsh mineral suvlar topilgan.

Aholisi va mehnat reserslari . 1.01.2002 yil ma'lumoti bo'yicha, viloyatda 1,8 mln. aholi istiqomat qiladi. Uning aholisi asosan tabiiy usish hisobiga ortib bormoqda. Bu yerda tabiiy usish respublika (20%) o'rtacha ko'rsatkichidan yuqori bo'lib, 30 % atrofida. Aholining milliy tarkibida O'zbeklar ko'pchilikni tashkil qiladi. Jami aholining 82% 'ozbeklar, 1,5 % atrofida ruslar, 1,7% tojiklar, turkmanlar va boshqa millat vakillari tashkil etadi.

Aholining zichligi hududlar bo'yicha notekis; tog' oldi va tog'li mintaqalarda u 1 km² ga 5 kishi atrofida bo'lsa, daryo vodiylarida 100 – 200 kishigacha to'g'ri keladi. Mehnat resurslari bilan etarli darajada ta'minlangan. Surxondaryo viloyati jami aholini 782 minggi mehnat resurslaridan iborat. Shundan 567 minggi iqtisodiy faol aholi hisoblanadi.

Xo`jaligi. Viloyat iqtisodiyotida qishloq xujaligi etakchi o'rinda turadi. Bu yerda ingichka tolali paxta, shaqarqamish kabi issiqsevar o'simliklar etishtirishga qulay. Shuningdek, Surxondaryo vodiysida anjir, anor, pista, uzum, xurmo, kabi o'simliklar ham ko'plab ekiladi. Surxondaryoning cho'l va tog' yaylovlarida chorvachilik yaxshi rivojlangan.

Sanoati. Surxondaryo viloyati yalpi ichki mahsulotining 19,6 foizini sanoat beradi. Sanoatning asosini yoqilg'i energetika, qurilish materiallari, yengil va oziq – ovqat, farmatsevtika tarmoqlari tashkil etadi.

Yoqilg'i energetika sanoati 1950 yillarda viloyatda neft, gaz va ko'mir konlarining ishga tushirilishi natijasida shakillandi. Viloyatda hozirgi kunda yiliga 143 ming tonna neft, 220–240 ming tonna atrofida ko'mir qazib olinmoqda.

Viloyatda yiliga 5 mln KVt soat atrofida elektr quvvati olinadi. Mahalliy ehtiyoj uchun kerakli bo'lgan elektr quvvati O'rta Osiyo yagona elektr tizimidan olinadi. Viloyatda qurilish materiallari sanoatini rivojlantirish uchun imkoniyatlar yetarli. Bu yerda tabiiy ohaktosh, qum, shag'al gips va boshqalar ko'plab topilgan.

Viloyatda kimyo sanoatini rivojlantirish uchun xom ashyolar etarli. Ayniqsa, yirik kaliy tuzi koni muhim xom ashyo hisoblanadi. Hozirda viloyatning eng rivojlangan etakchi tarnog' paxta hamda boshqa qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlaydigan engil va oziq-ovqat sanoatidir. Respublikamiz mustakillika erishgandan so'ng, viloyatda ip-gazlama, trikotaj va tikuvchilik, poyabzal, gilam to'qish va boshqalar rivojlana boshladi. Oziq ovqat sanoatida un va un mahsulotlari, yog', sut va sut mahsulotlari, sharbatlar, meva va uzum konservalari ishlab chiqarish tez o'sib bormoqda.

Qishloq xo'jaligida dehqonchilik etakchi tarmoq. Dehqonchilikda sug'oriladigan erlarda ingichka tolali paxta, lalmi erlarda bug'doy etishtiriladi. Surxondaryoda sabzavot va poliz ekilari etishtirish uchun qulay tabiiy va iqlim sharoitlari mavjud. Ayniqsa bu erda kartoshka, karam va piyoz etishtirishda katta yutuqqa erishilmoqda. Viloyatda uzum va bog'dorchilik ham yaxshi rivojlangan. Bundan tashqari bodom, xurmo, yong'oq, pista, olma limon etishtiriladi. Viloyat iqtisodiyotida chorvachilik ham o'ziga xos ahamiyatga ega. Bu erda qoraqo'ychilik yaxshi rivojlangan. Bundan tashqari viloyatda xisor qo'ychiligi va qoramolchilik, parrandachilik, pilla etishtirish ham yaxshirivojlangan.

Transporti. Transport viloyat ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishi va joylanishiga muhim tasir ko'rsatadi. Tashqi iqtisodiy aloqalarda temir yo'l transporti katta ahamiyatga ega. Toshkent–Termiz temir yo'li viloyat iqtisodiy aloqasida alohida o'rin tutadi. Viloyat ichki aloqalarida avtomobil transporti etakchi o'rinda turadi. Termiz barcha tuman markazlari bilan avtomobil yo'llari orqali bog'langan. Shuningdek, Termiz–Qarshi, Termiz–Hayraton (Afg'oniston),

Termiz–Dushanbe, Termiz–Toshkent, Denov–Urganch, Denov–Samarqand kabi avtomobl yo'llari ham katta ahamiyatga ega.

Tashqi iqtisodiy aloqalari. Surxondaryo viloyatida tashqi iqtisodiy faoliyatni rivojlantirish uchun barcha tabiiy va iqtisodiy omillar etarli. Shu sababli viloyatda Hindiston, Yugoslaviya, Tojikiston va boshqa mamlakatlar bilan qo'shma korxonalar tashkil etilgan. Tashqi savdo aylanmasi 2000 yilda 146,7 mln AQSH dollarini tashkil etgan. Shundan eksport hajmi 1293 mln AQSH dollarga (88,1%) teng bo'lsa, qolgani import mahsulotlariga to'g'ri keladi. Eksport qilinadigan mahsulot turlriga asosan paxta tolasi, qora ko'l terisi, oziq – ovqat, farmasevtika va boshqalar kiradi.

2.2. Surxondaryo viloyatining madaniy turistik resurslari va ularning turizmni rivojlantirishdagi istiqbollari

Arxeologik muzeyi. Surxondaryo viloyati hududida qadimdan yani ilk tosh davridan boshlab odamlar yashab kelgan. Shu sababli ushbu o'lkada inson faoliyati bilan bog'liq madaniy tarixiy yodgorliklar keng tarqalgan. Bular qadimgi shahar arxeologik qoldiqlari, maqbaralar, toshga bitilgan yozuvlar, g'orlar, muzeylar shular jumlasidandir. Bundan tashqari Surxon voxasi aholisi qadimgi milliy an'analarga, o'ziga xos to'y marosimlarga, folklor o'yinlarga, kurash kabi o'yinlarga ham boydir.

Surxondaryo viloyatiga tashrif buyurgan xorijiy sayyohlarni eng avvalo viloyatdagi madaniy turistik resurs markazi Termiz shahridagi madaniy–tarixiy obidalarni tanishtirishdan boshlanadi. Shu sababli viloyatga va viloyat markaziga tashrif buyurgan xorijiy sayyohlarga shaharning joylashgan o'rni va tarkib topish tarixi haqida batafsil so'zlab berish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Viloyatning markazi Termiz shahri Amudaryoning o'ng sohilida, O'zbekistonning janubiy qismida, Afg'oniston chegarasiga yaqin, dengiz sathidan 310 m balandlikda joylashgan. U xalqaro daryo porti va temir yo'l stantsiyasi

yaqinida joylashgan. Shahar mamlakatimiz poytaxti Toshkent shahridan 708 km uzoqlikda joylashgan. Maydoni 27,8 km² aholisi 120,6 ming kishi (2010 yil).

Iqlimi kontinental, issiq va quruq, yozi jazirama issiq (O'zbekistondagi eng issiq shahar—eng yuqori temperatura +49,5⁰) qishi iliq va qishda yanvarning o'rtacha temperaturasi 2,8 – 3,6⁰, iyulniki 28 - 32⁰ bazida, qishda sovuq - 20⁰ va undan ham past bo'ladi. Yillik yog'in miqdori 133 mm. Arxeologik topilmalar, arab va yunon manbalarida keltirilgan ma'lumotlar Termizning sharqdagi qadimgi shaharlardan biri ekanligidan dalolat beradi. Shaharning qulay geografik o'rni, strategik ahamiyatga molik joyda bo'lganligi, sharqni g'arb, janubni shimol bilan bog'lovchi savdo chorrahasida barpo etilishi, uning tez suratlar bilan rivojlanishga zamin yaratgan. Buyuk ipak yo'lining muhim bir tarmog'i ham Termiz orqali o'tgan. Qadimiy Sharq sivilizatsiyasining shakllanishida Termizning o'ziga xos o'rni bor. Ko'hna termizning qal'a qismida olib borilgan arxeologik izlanishlar natijalari va yozma manbalarining tahliliga ko'ra shaharga miloddan avvalgi birinchi 1000 yillikning o'rtalarida asos solingan. Termiz So'g'diyona, Xorazm, Marg'iyona va Parfiya davlatlari bilan madaniy va savdo aloqalarini o'rnatgan. Topilmalarga qaraganda shaharning Hindiston bilan madaniy va savdo aloqalari ham juda faol va uzviy bo'lgan.

Miloddan avvalgi IV - III asrlarda 10 ga maydonni egallagan Termizning qadimgi qal'a o'rnida aholi manzili bo'lgan. Hofizi Obro'yning yozishicha, shahar nomi "Taramas xa" (Baqtriycha "nargi sohildagi manzil") so'zidan olingan bo'lib, asrlar davomida turlicha atalib kelingan. (masalan, Antioxiya, Demitriyas, Tarmid, Tarmiz, Tami, Tamo), X asrdan boshlab Termiz deb atala boshlangan. Termiz miloddan avvalgi III – II asrlarga kelib Baqtriyaning eng rivojlangan siyosiy, iqtisodiy va madaniy markazlaridan biriga aylandi. Ashyoviy dalillarga ko'ra bu davrlarda shaharda memorchilik va hunarmandchilikning bir qancha sohalari (kulolchilik, degrezlik va metalsozlik, shishasozlik), Salavkiylar, Yunon – Baqtriya shohlari tovar – pul muomalasi Movarounnahrning boshqa shaharlariga qaraganda ancha oldin rivojlanganligidan dalolat beradi.

Termiz shahrining gullab yashnagan davri Kushonlar hukmronligi davriga to'g'ri keladi. Bu davrda Termiz hududiy jihatdan kengayib, shimoliy Baqtriyaning yirik shahriga aylangan. Shaharda shu davrga oid me'morchilik va hunarmandchilik binolari va namunalari, turli nafis sopol va shisha idishlar, fil suyagi, qimmatbaho metal va toshlardan tayyorlandan tayyorlangan zargarlik buyumlari, kabi topilmalarning ko'plab qayd qilinishi buning dalilidir. Masalan, Dalvarzintepadan topilgan va fil suyaklaridan yasalgan shaxmat donalari (fil va ho'kiz – zebu shaklida) hozirgi kunda yer yuzida aniqlangan eng qadimgi shaxmat donalari (miloddan avvalgi II asr) hisoblanadi. O'sha davrda Termiz Kushonlar davlatining muhim shahri va buddizmning markazlaridan biri bo'lgan.

Shaharni Termizshohlar idora qilgan. O'sha davrda Termiz Termizshohlar hokimligining poytaxti bo'lib turgan. Arablar bosib olgan davrda (686–704 yillar) Termiz 70 gektarga yaqin maydonni egallagan, to'rtburchak shakldagi qal'adan iborat bo'lgan. X asrda yozilgan "Hudud ul-olam" asarida Termiz "Jayhun bo'yidagi ko'rkam va obod shahar, qal'asi daryo bo'yida, ulkan bozori mashhur Huttalon va Chag'aniyon ahli shu yerda savdo qiladi", deb ta'riflangan.

X–XII asr boshlarida Termiz ravnaq topgan. u Toharistonning yirik shahri, hunarmandchilik va savdo markaziga aylangan. Bu davrda Termiz hududi 500 ga dan ortiq maydonni egallagan. Shaharda bir qancha mahobatli binolar barpo etilgan. Shulardan Eski shahar qismida Termizshohlar saroyi saqlanib qolgan.

Shaharda temirchilik, shishasozlik, kulolchilik rivojlangan. Termizda tayyorlangan hunarmandchilik buyumlariga talab yuqori bo'lgan. Shaharda o'nlab karvon saroylar faoliyat ko'rsatgan. O'sha davrda Termiz yirik madaniyat va ilm–fan markazi sifatida ham nom qozongan. Termizlik olimu–ulamolar o'rta asr sharqining fan, madaniyat va ma'rifatiga o'z hissasini qo'shgan.

Termiz vaqti–vaqti bilan G'aznaviylar, Xorazmshohlar davlatlari tarkibida bo'lgan. 1220 yilda Termiz mo'g'illar tomonidan vayron qilinib tashlangan. Sharofiddin Ali Yazdining "Zafarnoma" asarida qayd qilinishicha, Termiz aholisi mo'g'illarga qattiq qarshilik ko'rsatgan va shu bois shahar "Madinat ur-rijon" ("Mardlar shahri") deb ham atalgan. Mo'g'illar istilosidan so'ng XIV asrda

Termiz Surxondaryo sohiliga yaqin joyda yangidan qad ko'targan. Shahar o'z o'rnini bir necha bor o'zgartirsa – da, asrlar davomida o'z nomini Tarmita, Antixiya – Tarmita, Tarmiz, Tirmiz, Termiz ko'rinishlarida saqlab kelgan. Amir Temur Movarounnaxrni egallagach (1370), Termiz Surxondaryo voxasi bilan birga Temur davlati tarkibiga kirdi. 1407 yilda Temuriy Xalil Sulton farmoni bilan daryo sohilidagi Termiz qal'asi qayta tiklandi. Ko'p o'tmay o'z tangalarini zarb etadigan katta shaharga aylandi. 1504 – 1505 yillarda shaharni Shayboniyxon egalladi. Keyinshalik turli sulolalar tasarrufida bo'lib, XVIII asrning 2-yarmida shahar o'zaro urushlar natijasida butunlay vayron qilingan. Faqat uning atrofidagi Pattakesar va Solixobot qishloqlari saqlanib qolgan.

1894 yilda Termiz xarobalaridan 8 km narida joylashgan Pattakesar qishlog'ida ruslarning mahalliy tomonidan "Tuproqqo'rg'on" deb nomlangan qal'a istehkomi qurilgan. Hozirgi Termiz shu Tuproqqo'rg'on atrofida bunyod etilgan. 1916 yilda Buxoro–Qarshi–Termiz temir yo'l qurilishi munosabati bilan Termizning iqtisodiy mavqei o'sdi. O'zbekistonni qo'shni Afg'oniston, Pokiston, Hindiston va boshqa davlatlar bilan bog'lovchi yo'l termiz orqali o'tishi shaharning siyosiy va iqtisodiy hayotida muhim o'rin egallaydi.

Termizda dastlabki arxeologik qazilma ishlari B.P.Denike (1926–1927 y), M.E.Masson rahbarligidan Termiz arxeologik kompleks ekspeditsiyasi (1936-1938y) tomonidan olib borilgan. Eski Termizda arxeologik qazilma ishlari keyinchalik Sh. Pidayev, T.Annayevlar tomonidan davom ettirilib, shahar tarixi yanada oydinlashtirildi. 1933 yilda Termizda birgina paxta tozalash va yana bir necha ustaxonalar bo'lgan. Keyinchalik va ayniqsa mustaqillik yillarida, sanoat, qurilish engil, oziq – ovqat va boshqa korxonalar ishga tushdi. Obodonlashtirish va ko'kalam-zorlashtirish ishlari yaxshilandi.shaharda yangi temir yo'l vokzali qurildi. Amfiteatr, arxeologiya muzeyi, san'at kolleji, akademik litsey, tadbirkorlar markazi, markaziy stadion, "Del'fin" suzish havzasi, kurash saroyi, tennis korti, "Alpomish" majmuasi, markaziy bozor, "Termizning 2500 yilligi" nomli xiyoboni bor. Termizda jami 2500 dan ziyod korxona bo'lib, mikrofirmalar, kichik va o'rta korxonalar, chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxonalar faoliyat

ko'rsatmoqda. Paxta tozalash, qurilish materiallari ishlab chiqarish, engil va oziq-ovqat sanoati muhim o'rin tutadi.

Viloyat o'lkashunoslik muzeyi, "Hakim at-Termiziy" me'moriy majmuasidagi "Meros" tarmoq muzeyi bor. O'zbekiston Prezidenti I. A. Karimovning 2500 yilligini aks ettiruvchi Surxondaryo arxrologiya muzeyi bunyod etildi. Viloyat musiqa drama, qo'g'irchoq teatrlari ishlab turibdi; 4 ta shahar kutubxonasi hamda 2 ta tarmoq kutubxona mavjud, hayvonot bog'i bor. Xorijiy va mahalliy sayyohlarni shaharni kelib chiqish tarixi va diqqatga sazovor joylari bilan tanishtirilgach, ularni "Hakim at-Termiziy" me'moriy majmuasi bilan tanishtiriladi.

Diniy ziyorotgohlar. Termiziy me'moriy majmuasi, Hakim at-Termiziy maqbarasi–Termizdagi me'moriy yodgorlik (IX-XV asrlar) majmua Abu Abdulloh Muhammad Hakim Termiziy nomi bog'langan. Termiziy me'moriy majmua asrlar davomida bir necha bor qayta qurilgan. Masjid, maqbara, xonaqoh, qorixona kabi binolardan iborat. Dastlab xom g'ishtdan **xonaqoh** (IX asr) bunyod etilib, Hakim at-Termiziy shu yerda yashab mudarrislik qilgan. Binodan keng hovlining bir qismi, qalin devor to'siq va shimoliy–sharqiy burchagida uncha katta bo'lmagan yerto'lasimon xujra saqlangan. Vaqtlar o'tishi bilan qabr ustiga, xonaqohning janubiy–g'arbiy burchagida xom g'ishtdan janubga qaratib maqbara bunyod etilgan (IX asr). Termiziy maqbarasi xalq orasida ulug'lanib avliyo qabri, muqaddas ziyoratgoh sifatida e'zozlangan. Keyinchalik qorixona va o'g'il al-Hakim Abdulloh maqbarasi (X asr), shimolda uncha katta bo'lmagan hovliga qaragan 3 gumbazli ravoqli yo'lak ko'rinishidagi namozgoh masjidi (XI – XII asrlar) hamda bir qator qo'shimcha xonalar qo'shilgan.

Temuriylar hukumronligi davrida (XV asr) xonaqoh baland asos (balandligi 1,5 m) ustiga pishiq g'ishtdan qayta qurildi. Unga tutash bo'lgan xonalar tamirlandi. Honaqohning shimol va janub tomonlariga ishlandi. Oddiy va aniq qurilmali xona devorlari ravoq, ustunlari "romb" ko'rinishdagi poyustunga tayangan. Hakim Termiziy maqbarasi IX asrda bunyod etilgan. Honaqoh hovlisining g'arbidagi 3 gumbazli masjid maqbaraga tutash, 3 ravog'i hovliga qaragan.

Masjidning g'arbi devor markazida keng hoshiyali mehrob bor. Undagi bo'rtma yozuv, sopol shakllar, oraliq zaminidagi o'yma ganch bezaklar o'ziga xos. Masjid ustunlari g'ishtdan bezakli qilib terilgan. Masjiddan ravoq orqali maqbaraga o'tiladi. Maqbara ichi ganch o'ymakorligida gilam nusxa bezakda serxasham pardoqlangan. Gumbaz osti sharafasida kufiy xatida Quronning 36-surasi o'yib yozilgan. Xonaqoh ichi ham yuldizsimon girih naqshlar bilan pardoqlangan. Rasvoqlardagi tabodonlariga panjaralar o'rnatilgan. Maqbara ichidagi oq marmar sag'ana Temuriylar davridagi tosh o'ymakorligi san'atining yuksak namunasidir. Sag'ana uch pog'onali, asosi islomiy naqsh va yozuvli koshinlar bilan o'rta qismidagi uch mehrobiy tokchaning markaziy (o'rta) qismi muqarnas kosachalar bilan, ikki yoni shamchiroq tasviri bilan bezatilgan. Sag'ana yozuvlarda Termiziy hayoti va faoliyati tavsiflangan. Kichik maqbarada ham ta'mirlash ishlari olib borilgan. Abdullaxon hukmronligi davri (XV asr) da qazira (hovli) hudsudida to'qqiz gumbazli masjid o'rnida to'rt gumbazli masjid bunyod etilgan. Janubdan kiraverishda yana bir maqbara (go'rxona va ziyorotxonadan iborat) qurilib ravoqli bo'lmalar orqali Termiziy maqbarasi va xonaqohlar bilan o'zaro bog'langan. Termiziy me'moriy majmuasi 1955–1957 yillarda ilmiy o'rganilib, XIV–XV asrlardagi ko'rinishi qayta tiklandi. 1980–1981 yillar va 2001–2002 yillarda maqbara va xonaqoh qayta pardoqlandi. Masjidning umumiy tarxi 28. 0. X 29. 0.m, maqbara 5,10 X 4,70m. xonaqoh baland asos (balandligi 1,5 m) ustiga pishiq g'ishtdan qayta qurildi. Unga tutash bo'lgan xonalar ta'mirlandi. Xonaqohning shimoliy va janubiy tomonlariga peshtoq ishlandi. Oddiy va aniq qurilmali xona devorlari ravoq ustunlari “romb” ko'rinishidagi poy ustunga tayangan.

Hakim Termiziy (to'liq ismi Abu Abdulloh Muhammad ibn Ali ib Hasan ibn Bashir Hakim Termiziy (taxni 750/760–Termiz–taxni-868)) –mashhur mutassovvilod. Termiziyning tarjimai xoliga oid ma'lumotlar o'rta asr arab mualliflaridan Tojiddin Subniy, Xatib Bog'dodiy, Ibn Xojar Asqaloniy, Abdurahmon Sullamiy va boshqalarning, shuningdek allomaning o'zi yozgan “bad'u sha'ni Abu Abdulloh” (“Abu Abdulloh ishining boshlanishi”), avtobyografik risolasida keltirilgan. Shuningdek Termiziy qabri ustidagi

o'rnatilgan sag'ana bitiklarida ham uning hayoti haqida ba'zi ma'lumotlar bor. Termiziy yoshlik yillarida o'z yurtida taniqli olimlardan ta'lim olgan. Ilmini takomillashtirish maqsadida sharq mamlakatlarining ko'p shaharlarda, jumladan Balx, Nishopur, Bag'dod, Makka va Madinada bo'ladi. O'sha davrning yirik allomalari bilan ilmiy baxs va munozaralarda ishtirok etadi.

Termiziy qalamiga mansub asarlar ko'p. Misrlik olim shayx Abdulattoh Abdulloq Barakaning dalolat berishicha, Termiziy 400 dan ortiq asar yozgan, ulardan 60 ga yaqini bizgacha etib kelgan. Ular orasida eng avvalo, Muhammad (Sov) hadislariga bag'ishlangan "Navodir al-ulus fi ma'rifiy axbor rasul" ("Rasullulloh habarlarini bilishda nodir usullar ") kitobini aytish kerak. Ushbu asarining 2 qo'lyozma nusxasi Toshkentda mavjud bo'lib, ulardan biri O'zbekiston musulmonlar idorasining kutubxonasida, ikkinchisi Abu Rayxon Beruniy nomidagi sharqshunoslik institutida saqlanadi. Allomaning keyingi yillarda nashr etilgan asarlaridan tasavvufga oid 2 kitobi: "kitob haqiqat al-odamiya" ("Insoniyat haqiqati to'g'risida kitob") va "adab un-nafs" ("Nafs odobi") ni ko'rsatish mumkin. Termiziyning bizgacha etib kelgan muhim asarlari "Xatm ul-avliyo", (ba'zi manbalarda "Xatm ul viloyat") bo'lib unda Termiziyning valiylik haqida qarashlari keng bayon qilinadi. Valiylikning haqqoniyligi, uning nubuvvat (payg'ambarlik) bilan bog'liq bo'lgan jihatlari asarning bosh mavzusi hisoblanadi. Termiziy fikricha, aql-zakovat o'zlashtira oladigan eng oily bilim-ma'rifat yoki hikmatdir, bu – inson qalbini yorituvchi "ilohiy nur" dir. Turfa ilmlarni o'qib-o'rganish jarayonida uni egallash mumkin, ammo asl ma'rifat Ollohning o'zi yarlaqogan zotlargagina nasib bo'ladi. Termiziy sufiyavliyolarni ayni shunday zotlar sirasiga kiritadi. "Xatm ul-avliyo" ba'zi faqix va hukumdorlarning keskin e'tiroziga ham sabab bo'lib, oqibatda Termiziy ona shahri Termizdan chiqib ketib, bir qancha muddat Balxda yashagan. Uzoq yillar davomida allomaning yo'qolib ketgan asarlari sirasiga xato ravishda kiritilgan bu asarni Parij institutlar markazi islomiy madaniyat bo'limining a'zosi Usmon Ismoil Yahyo 1965 yil Bayrutda nashr etdi.asar muqaddima va 29 fasldan iborat bo'lib, unda ko'tarilgan masalalar murid va shayxlar o'rtasidagi savol – javob tarzida bayon qilnadi. Bu kitob

tasavvuf ilmi tarixida viloyat avliyolik masalasini birinchi mukammal bir nazariya va ajoyib maqolalar turkumi shaklida ifoda qilingan nodir manba sifatida alohida ahamiyatga ega. U Termiz va Balx atrofida shakillangan tasavvuf ahli uchun ma'naviy vasiyatnoma yoxud ta'lim dasturi sifatida xizmat qilgan. Ilim – fanning turli sohalarida mashxur bo'lganligi uchun Termiziyning zamondoshlari “Al Hakim” deb ulug'lashadi.

Surxondaryo viloyatidagi yana bir me'moriy yodgorliklardan biri Abu Iso Termiziy maqbarasidir. Ushbu me'moray maqbara Surxondaryo viloyati Sherobod tumanida joylashgan. U XI-XII asrlarga mansub. U Abu Iso Muhammad Termiziy qabri ustiga qurilgan. Xozirgi kunda yodgorlik bir – biridan ravoqlar orqali o'tuvchi 4 xona (bo'lma) dan iborat yaxlit bino ko'rinishida, xonalar tarxi 4,3 X 4,5m shim – sharqiy tarxi ayvon qurilishi munosabati bilan keyinchalik to'silgan. 3 xonali bo'lma murabba tarxli, ulardan janubdagi go'rxona. Unda marmar sag'ana bor. Sag'ana 3 pog'anali, muqarnas naqsh va yozuvlar bilan pardozlangan. Go'rxonadan tor uzun yo'lka orqali xonaqohga o'tiladi. Xonaqoh poli go'rxonaga nisbatan pastroq bo'lib, ular oraligi kehg ravoq bilan ajralgan. Xonaqoh gumbaz tomli, mehrobli. Yonidagi 2 xonadan shimoliy – sharqiy tarziga chiqiladi. Xonaqoh oldidagi 3 ayvon gumbazli, qalqonsimon bag'only, devorlariga 4 ravoq ishlangan, pishiq g'ishtdan hoshiyalar terlgan. Termiziy maqbarasi ganchkori bezaklar bilan pardozlanib, tashqi devorlariga 6 g'ishtin ravoqli namoyonlar ishlangan. Tobadonlariga oq ganchdan panjaralar o'rnatilgan. Ravoqlari g'isht qalinligida xoshiyalangan. Termiziyning bosh tarzini kichchik ko'shksimon gumbazli qurilma egallagan. Yodgorlik haqida ilk bor D.N.Logofet yo'l ocherklarida tilga olgan. 1945 yil V.L.Voronina me'moray o'lchamlarni bajargan. Amir Temur tavalludining 660yilligi munosabati bilan Termiziy maqbarasida ta'mirlash ishlari olib borildi. Sag'anali ganchkori panjaralari qayta o'rnatildi.

Abu Iso, Imom Termiziy (to'liq nomi Muhammad Ibn Iso Ibn Savra Ibn Muso Ibn Zahhoq Sullamiy Bug'iy Termiziy), (824- Termiz - 892).bug' qishlog'i, (hozirgi Sherobod tumani) – buyuk muqaddis. Sullamiy deb nisbat berilishiga sabab bobolaridan biri sullam degan arab qabilasiga do'st tutungan. Bug'iy

deyilishiga sabab o'sha vaqtdagi Bo'g' nomli qishloqda vafot etib, shu yerda dafn qilingan. Umrining ohirlarida ko'zi ojiz bo'lib qolgani uchun al-Darar taxallusi bilan ham atalgan. Termiziyning yoshlik yillari Termiz shahrida o'tgan, dastlabki ma'lumotni ham shu erda olgan. Bolaligidan o'ta ziyrakligi, xotirasining kuchliligi, noyob qobiliyati bilan o'z tengqurlaidan ajralib turgan. Diniy va dunyoviy fanlarni, ayniqsa, hadis ilmini alohida qiziqish bilan o'rgangan, bu boradagi bilimlarini yanada oshirish uchun ko'pgina sharq mamlakatlariga borgan. Uzoq yillar Iroq, Isfahon, Xurason, Makka va Madinada yashagan. Uzoq davom etgan safarlari chog'ida qiroat ilmi, ba'yon, fiqix, tarix, ayniqsa o'zi yoshlikdan qiziqqan hadis ilmi bo'yicha o'sha davrining yirik olimlaridan ta'lim oldi. Mashhur muxaddislardan Imom Buxoriy, Imom Muslim, Imom Abu Dovud, Qutayba ibn Said, Ishoq ibn Muso, Mahmud ibn Gaylon va boshqalar uning ustozlari edi.

Termiziy Imom Buxoriy bilan uchrashganda (bu uchrashuv Nishopurda bo'lgan va ikki alloma 5 yil birgalikda yashagan) hadisning matninigina emas, uning hikmati va falsafasini tushinib etganini etirof etadi. O'z navbatida Imom Buxoriy o'z shogirdini maqtab, kamtarlik bilan: "sen mendan bahro topganingdan ko'ra men sendan ko'proq bahra topdim", degan. Bu Termiziyga berilgan juda katta baho edi. Termiziy yolda, safarda bo'lganda ham, yoli bir joyda muqim turganda ham ustozlaridan, uchratgan roviylardan eshitgan hadislarni yozib olar, ularni tartibli ravishda alohida-alohida qayd qilib borardi. 868 yil xorij safaridan o'z yurtiga qaytgan Termiziy ilmiy-ijodiy ish, shogirdlar tayorlash bilan mashg'ul bo'ldi va yirik muhaddis olim, imom sifatida shuhrat qozandi. Taqvodorlik, islom dini va o'z obro'siga gard yuqtirmaslikka intilishi, dunyo mol-matosi va boylikka beparvo qarash, ohiratni g'omini yeyish Termiziyning hayoti tarzi edi. Termiziyning shogirdlari uning ishlarini davom ettirdi. Ular ichida Makhud Ibn al-Fadl, Muhammad Nasafiy, Qaysam Ibn Kulayib Shoshiy, Ahmad ibn Yusuf Nasafiy va boshqalarni ko'rsatish mumkin.

Termiziy qalamiga mansub asarlarning aksariyati bizgacha etib kelgan. "Al - Jomi' as - sahih" ("Ishonarli to'plam"), "ash-Shamoil ash-nabaviya" yoki "Ash - Shamoil an-nabiy sallolohu alayhi va sallam" (Pag'ambar alayhissalomning shakl

va sifatlari), “al-Ilal filhadis” (“hadislardagi illatlar”), “Risola fil-xilof val-jadal”, (hadislardagi ixtilof va baxslar haqida risola), “at – Ta’rix (Tarix)”, “Kitob ul-asmo valkuno” (“Ismlar va kunyalar kitobi”) va boshqalar. Termiziyning asarlari ichida eng mashhuri, shubhasiz, “al-jomi’ as-sahih” bo’lib 6 ta ishonchli hadislar to’plamidan biridir. Ushbu asar ilmiy manbalarda “Jomi at-Termiziy”, “sahihi Termiziy”, “sunami Termiziy” nomi bilan ham ataladi. Termiziyning muhim asarlaridan yana biri “ash-Shamoil an-naba viya” Muhammad (as) ning shaxsiy hayoti, u zotning suvrat va siyrati, ajoyib fazilatlar, odatlariga oid 408 hadisi sharifni o’z ichiga qamragan manbadir. Bu kitob azaldan islomshunos olimlar, tadqiqotchilarning diqqatini o’ziga tortib keladi. Arab tilida bitilgan ushbu asarga bir qancha sharxlar ham yozilgan. Uning tili ravon, uslubi g’oyatda oddiy. Asar fors va turk tillariga tarjima qilingan. “Ash-shamoil an-naba viya” ning birinchi qismida keltirilgan hadisi shariflar payg’ambarning suvrat (tashqi qiyofasi) ga, ikkinchi qismida keltirilgan hadisi shariflar esa ichki dunyosi – yu axloqiy fazilatlarini bayon qilishga bag’ishlangan. Kitobning XVI asrga oid bir qo’lyozmasi Toshkentda O’zbekiston Musulmonlar idorasi kutubxonasida saqlanadi. “Ash-shamoil an-naba viya ” o’zbek tiliga o’girilib so’nggi yillarda Toshkentda bir necha bor nashr etildi. 1990 yil Termiziy tavalludining 1200 yilligi yurtimizda keng nishonlandi. Mustaqillik yillarida Termiziyning yodgorlik majmuasi qaytadan ta’mirlanib qutlug’ ziyoratgohga aylantirildi.

Surxondaryo viloyatida madaniy yodgorliklardan biri **ibtidoiy odamlar yashagan g’orlar hisoblanadi.** Ma’lumki Surxondaryo viloyatining mo’rtadil iqlimi va atrof-muhit bu yerda juda qadimdan inson manzilgohlarining paydo bo’lishiga sabab bo’lgan. Janubiy Hisor tog’ tizma turkumiga kirgan Boysuntog’ va Ko’hitang tog’larida mavjud g’or va o’ngurlar ibtidoiy odamlar uchun makon bo’lib xizmat qilgan. Viloyat hududidagi eng qadimgi makon neandertal odamning manzilgohi Boysuntog’dagi Teshiktosh g’ori bo’lib, O’rta tosh (must’e) davriga, ya’ni miloddan avvalgi 100-40 ming yilliklarga oid. Bu g’ordan 3000 donaga yaqin ibtidoiy odamlar yasagan keskich, taroshlag’ich va chopqi kabi tosh o’zaklar topilgan. Teshiktosh g’oridan ibtidoiy davr odamining tashqi ko’rinishini

tiklashda muhim ashyoviy manba hisoblangan odam tana suyagi topilishi juda muhimdir. Boysundagi Amir Temur g'ori ham viloyatning eng qadimgi g'or makonlari turkumiga kiradi. Tosh asrining yuqori bosqichiga kelib (miloddan avvalgi 40-12 ming yilliklar) Janubiy Hisor tog' tizmasidan boshlangan daryo va soy bo'ylari (To'palang daryosi havzasi) insonlar tomonidan o'zlashtirilgan.

Surxondaryo viloyatda ibtidoiy odamlar tomonidan qoldirilgan madaniy yodgorliklardan biri toshga bitilgan **tasviriy san'at namunalari**dir. Ushbu tasviriy san'at namunalarini ko'rish xorijiy turistlarda juda katta qiziqish uyg'otadi. Ma'lumki o'rta tosh asri, ya'ni miloddan avvalgi 12-5 ming yilliklarga kelib, insonlar nafaqat g'orlarda, balki tekisliklarda va daryo bo'ylarida ham makon qurib istiqomat qila boshlaganlar. Shu bois viloyatning Ko'hna Termiz, Ayritom kabi yodgorliklarida ko'plab tosh qurollar uchragan. Bu davrga kelib o'q-yoy ixtiro qilingan, suyakdan bigiz va h. k. qurollar ko'paygan va yovvoyi hayvonlarni xonakilashtira boshlagan.

O'rta tosh davri insonlar tasavvurlari va e'tiqodlarida keskin o'zgarish yuz bergan davr hisoblanadi. Bu jarayonni Markaziy Osiyoning eng qadimgi rang tasvirlaridan bo'lmish Ko'hitangdagi Zarautsoy suratlarida kuzatish mumkin. Zarautsoydagi tosh ayvon yuza qismida va shipda 200 ga yaqin qizil bo'yoqlarda bitilgan suratlar saqlanib qolingan. Bu lavhalarda ov marosimi, hayvonot olami va o'rta tosh davri odamlari tasvirlari o'z aksini topgan. Ba'zi bir olimlarning ta'kidlashicha Zarautsoy suratlarida sehri ov marosimi jarayoni aks ettirilgan.

Zarautsoy suratlari Markaziy Osiyoda san'atning shu jumladan tasviriy san'atning ilk namunasi hisoblanadi. Viloyatda neolit (yangi tosh), enolit (mis - tosh) davrlari manzilgohlarida qayd etilgan bo'lib, bu makon va manzilgohlar ham jez (bronza) asrida vohada dehqonchilik madaniyatining vujudga kelishida muhim ahamiyat kasb etgan.

Surxondaryo viloyatining muhim madaniy turistik ob'ektlaridan biri viloyatning **arxeologik muzeyi hisoblanadi**. Ushbu muzey O'zbekiston Respublikasi mustaqilligi sharofati va shaxsan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. A. Karimov loyihasi va tashabbusi bilan bunyod etilgan ma'naviyat maskanidir.

Markaziy Osiyoda yagona hisoblangan Termiz shahridagi Surxondaryo viloyatidagi Arxeologiya muzeyi ko'rgazmalari kirish zali, 9 ta zal va ustunli ayvon (galereyadan) iborat. Muzeyning kirish zalida vohaning har bir tarixiy davriga xos tosh va ganchdan yasalgannoyob haykallar, tosh hovuz va katta hajmdagi sopol idishlar joy olgan bo'lsa, 9 ta asosiy ko'rgazma zallarida miloddan avvalgi 100 ming yillikdan XX asr boshlariga qadar Surxondaryo viloyati yodgorliklarini o'rganish jarayonida topilgan oddiy tosh qurollaridan tortib, yuksak did bilan yaratilgan san'at namunalari gacha namoyish etilgan. Kirish zalidan ko'rgazmalar qo'yilgan 9 ta zalga o'tiladi:

- 1) Surxon vohasi tosh davrida (miloddan avvalgi 100-3 ming yilliklar)
- 2) Surxon vohasi jez davrida (miloddan avvalgi 3-1 ming yillik boshlari)
- 3) Qadimgi Baxtriyamadaniyati (miloddan avvalgi 1-ming yillik boshlari-miloddan avvalgi IV asr)
- 4) Baxtriyaning makedoniyalik Iskandar va ellinistik davlatlar davri madaniyati (miloddan avvalgi 329 yil - miloddan avvalgi II asr o'rtalari)
- 5) Qadimgi Baxtriyaning Kushon davri madaniyati (miloddan avvalgi 1-milodiy, III asrlar)
- 6) Shimoliy Tohariston ilk o'rta asrlar davrida (milodiy IV–VII asrlar)
- 7) Shimoliy Tohariston rivojlangan o'rta asrlar davrida (IX–XII asrlar 1-choragi)
- 8) Termiz va Chag'oniyonning Amir Temur va temuriylar davri madaniyati (1370 yil–XVI asr boshlari)
- 9) Surxon vohasi XVI–XX asr boshlarida.

Muzeyning kirishidan keying 1-zalida Surxon vohasining tosh davri (miloddan avvalgi 100-3 ming yilliklar) madaniyatiga xos eksponatlar va ibtidoiy odamlar yashagan Hisor va Ko'hitang tog'laridagi g'orlar va ushbu g'ordan topilgan yosh bolaning bosh suyagi haykal tarzida yasab ko'rgazma zaliga qo'yilgan. Bundan tashqari ushbu zalda ibtidoiy odamlar tomonidan toshdan yasalgan keskich, tarailagich va chopqilarning namunalari qo'yilgan. Bundan tashqari ushbu zalda ibtidoiy odamlar tomonidan chizilgan tasviriy san'at

namunalari Zarautsoydagi g'or devorlariga bitilgan suratlar ham aks ettirilgan. Zarautsoydagi g'or devorlariga chizilgan suratlarda ibtidoiy odamlarning ov qilish marosimi tasvirlangan. Muzeyning 2-zali Surxon vohasining bronza davri (miloddan avvalgi 14-1 ming yillik boshlari) dagi madaniy hayoti tasvirlangan eksponatlar joylashtirilgan. Miloddan avvalgi 2-1 ming yilliklarni qamrab olgan bronza (jez) asrida Markaziy Osiyoda tub o'zgarishlar yuz bergan. Bu davrda ibtidoiy odamlar qalayi, mis va qo'rg'oshin qotishmalaridan tarkib topgan jez (bronza) qurollari yanada takomillashtiriladi, kulolchilik va charxning ixtiro qilinishi hunarmandchilikning dehqonchilikdan alohida xo'jalik sifatida ajralib chiqishiga olib keldi. Jez davriga kelib me'morchilik rivojlangan va sug'orma dehqonchilikka asos solingan, mintaqalararo mos ayirboshlash yuzaga kela boshlagan. Viloyat hududida so'ngi jez davriga oid dastlabki o'rganilgan yodgorlik **Sopollitepa** yodgorligi hisoblanadi. Shu bois Surxon vohasining so'ngi jez asriga mansub madaniyati Sopollitepa madaniyati deb ataladi.

Miloddan avvalgi XV asrda Sopollitepada hayot izlari so'nadi va bu joyda istiqomat qilgan odamlar Sheroboddaryo havzasiga uning qadimiy irmoqlaridan biri –Bo'stonsoy qirg'oqlariga ko'chadi. Bu obida **Jarqo'ton** nomi ostida ma'lum. Jarqo'ton yodgorligi alohida muhofazalangan qal'a saroy va unga tutash qismdan, shu jumladan, voha uchun diniy markaz vazifasini o'tagan ibodatxona, alohida – alohida tepaliklar shaklida turar joy binolaridaniborat mahallalar, kulollar ustaxonalari va xumdonlar, shuningdek, mozar – qabristondan iborat. Jarqo'ton yodgorligining umumiy maydoni, unda mahobatli inshootlarning mavjudligi, hunarmandchilikning taraqqiy etgani, bu joylar shahar **turkumidagi madaniyat bo'lganligini ko'rsatadi.**

Jarqo'ton yodgorligi Vatanimiz hududidagi eng qadimiy shaharning ilk timsolidir. Jarqo'ton olov ibodatxonasi bu turdagi inshootlarning eng qadimiy namunasi hisoblanadi. Bu davrda hunarmandchilikning ommaviy turlaridan biri– kulolchilik ham jadal taraqqiy etgan. Sarg'ish va qizil loydan charxda yasali b maxsus xumdonlarda pishirilgan vaza va kosalar, ko'za va jo'mrakli idishlar, turli hajmdagi xurmacha va xumlar o'zining sifatliligi va xilma – xilligi bilan ajralib

turadi. Sopollitepa va ayniqsa, Jarqo'rg'on yodgorliklarida loydan yasalgan **but** haykal, hayvonlar tasviri aks ettirilgan obrazlarning mavjudligi vohada jez davrining so'nggi bosqichlarida badiiy san'atning ilk kurtaklari ham shakllanganligidan dalolat beradi.

Vohada so'ngi jez davrida istiqomat qilgan aholi Ko'xna Sharqning qadimiy tsivilizatsiyalari shu jumladan Shumer, Akkad, Elam, Shimoliy Hindistonning Xarran, Sibir va Qozog'iston hududlarida istiqomat qilgan elat va qabilalar bilan yaqin iqtisodiy va madaniy aloqada bo'lganlar.

Muzeyning 3-zali miloddan avvalgi 1 ming yillik boshlari - miloddan avvalgi IV asrni o'z ichiga olgan Qadimgi Baxtriya o'lkasi madaniyatiga oid ko'rgazmalar bilan jihozlangan. Miloddan avvalgi ming yillikning birinchi choragida o'z tasarrufiga Surxon vohasi, Janubiy Tojikiston va Shimoliy Afg'oniston yerlarini birlashtirgan Baxtriya o'lkasining iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayotida chuqur o'zgarishlar yuz bergan. Bu jarayon bevosita temirdan mehnat qurollari yasashning ixtiro qilinishi bilan bog'liq. Vohada **qadimgi Baxtriya** podsholigi davrida shaharsozlik va me'morchilik bilan bir qatorda hunarmandchilik ham taraqqiy topgan. Buni Mirshodi vohasida topilgan toshdan yasalgan odam bosh suyagi tasviri, Kuchuktepa, Qiziltepa, Talashno9n kabi obidalaridagi uch qirrali toshkesar, temir va toshdan yasalgan yarim oy shaklidagi o'roqlar, keli va kelisoplar shular jumlasiga kiradi. Miloddan avvalgi VI–IV asrlar kulolchilikning asosiy xususiyatlaridan biri–don va suv saqlashga mo'ljallangan ulkan xumlardan tortib mo'jaz sapol idishlarning aksariyati charxda yasalganligi va bankasimon ko'rinishga ega bo'lganligidadir.

Viloyadagi qadimgi Baqtriya davriga mansub yodgorliglari miloddan avvalgi V asrning 30-yilarida boshlangan Makedoniyalik Iskandar istibdodi oqibatida inqirozga yuz tutgan. Viloyatdagi qadimgi Baxtriya davriga mansub 42 ta yodgorlikning aksariyat qismi makedoniyalik Iskandar boshchiligidagi qo'shinlar hujumi tufayli vayronaga aylangan.

Arxeologiya muzeyining 4-zalida Baxtriyaning **makedoniyalik Iskandar** va **ellinistik davlatlar** davri madaniyati (miloddan avvalgi 329 yil miloddan avvalgi II asr o'rtalari) ga bag'ishlangan ko'rgazmalar bilan jihozlangan.

Miloddan avvalgi 320 yilda makedoniyalik Iskandar boshchiligidagi yunon – makedon qo'shinlarining Oks (Amudaryo) va Yaksart (Sirdaryo) oralig'idagi xududni egallashi uchun yurishi boshlandi. Bu yurish miloddan avvalgi 327 yilda Oks va Yaksart oralig'idagi katta bir qismini egallash bilan tugadi. Makedoniyalik Iskandar boshchiligidagi yunon–makedon qo'shinlarining istibdodi qo'shni o'lkalar singari Baxtriyada ham tushkunlikka va vayronagarchilikka olib kelgan.

Voha hayotining qaytadan tiklanishi Salavkiylar va ayniqsa yunon–Baxtriya shohligi davriga kelib Oks (Amudaryo) bo'ylarida joylashgan Ko'xna Termiz shahri sifatida shakllangan, kechuv joyida qal'a vazifasini o'tagan Kampirtepa, Haitobodtepa, Jondavlattepa kabi shaharchalar kengaytirilgan va Dalvarzintepa kabi shahar, qishloq va qal'alarga asos solingan.

Miloddan avvalgi III–II asrlar Baxtriyada, butun Yaqin Sharq hududida bo'lgani kabi, Qadimgi Sharq an'analari va yunon madaniyatining birlashuvi va hamkorligi jarayoni kuchayib o'ziga xos ellinistik madaniyatni yuzaga keltirgan. Bu jarayon shaharsozlik va me'morchilikda, tangachalar zarb qilishda ya'ni Tovar –pul munosabatlarining tarkib topishida, badiiy san'at va hunarmandchilikda yaqqol ko'zga tashlanadi. Shimoliy Baxtriya (Surxon vohasi) ning Yunon–Baxtriya davri badiiy san'ati turlaridan biri Terrekota haykalchalar, ya'ni mo'jaz san'at namunalaridir. Bular yalong'och qiyofada yoki tavonlariga tushgan kiyimlari hilpirab turgan haykalchalar yoki ayol mabudaning taxtga o'tirgan xolatdagi tasvirlaridir.

Yunon – Baxtriya shoxlari nomidan zarb etilgan tangachalarning yuza qismida Diyodot, Dimitriy va boshqa hukumdorlarning ko'kragigacha tasviri tushirilgan bo'lib, aynan portret shaklidir. Yunon – Baxtriya podsholigi davri o'ymakorlik, shishasozlik, sangtaroshlik kabi hunarmandchilik turlarining eng taraqqiy etgan davridir. Muzeyning 5-zali Qadimgi Baxtriyaning Kushon davri (miloddan avvalgi I – milodiy III asrlar) ko'rgazmalari bilan jihozlangan.

Miloddan avvalgi I milodiy III asrlarda hukumronlik qilgan kushon podsholigi nafaqat Vatanimiz tarixida, balki butun Markaziy Osiyo tarixiy o'lkalari xalqlari, iqtisodiy va madaniy taraqqiyotida muhim o'rin tutgan davlatlardan biri sanaladi.

To'rt asr davomida markazlashgan davlatning mavjudligi Baxtriya, shu jumladan, uning tarkibiy qismi bo'lgan Surxon vohasi jadal o'zlashtirilgan, yirik kanallar qazilgan (Katta anhor), mavjud sug'orish inshootlari kengaygan (Zang kanali), yangi shaharlarga asos solingan (Zartepa) yoki Tarshita (Termiz) va Dalvarzintepa singari shaharlar hududiy jihatdan kengaytirilgan. Kushon davri shaharlari loyiha asosida bunyod etilgan, ikki qism, ya'ni ark va unga tutash asosiy shahar qismlaridan iborat bo'lgan. Bu davr shaharsozligi Dalvarzintepa, Zartepa, Ko'hna Termiz va uning tarkibiy qismlari hisoblangan Qoratepa, Fayoztepa o'rnidagi diniy inshootlar orqali o'rganilgan.

Kushon davri shaharlari ma'muriy, iqtisodiy markaz bo'lish bilan bir qatorda diniy markazlar vazifasini ham o'tagan (Ko'hna Termizdagi Qoratepa, Fayoztepa, Ayritom va Dalvarzintepadagi buddaviylik ibodatxonalari). Bu davrda "Buyuk ipak yo'li" to'liq shakllangan va xalqaro savdoda Kushon davlati ham muhim o'rin egallagan. Xolchayon, Dalvarzintepa, Ko'hna Termiz, Zartepa, Ayritosh kabi obidalaridan qazib ochildigan dunyoviy va diniy yo'nalishlarda yaratilgan haykallar, xima-xil mo'jazz san'at turlari, turli-tuman hunarmandchilik buyumlari o'zlarining takrorlanmasligi bilan ajralib turadi.

Arxeologiya muzeyining 6-zalida Shimoliy Tohariston ilk o'rta asrlar davri (milodiy IV–VIII asrlar) dagi ko'rgazmalar bilan jihozlangan. Toharistyon o'z tarkibiga Surxondaryo viloyati, Janubiy Tojikiston va Shimoliy Afg'oniston yerlarini qamrab olgan bo'lib, hududiy jihatdan Kushon davri Baxtriya o'lkasiga teng bo'lgan. V–VIII asrlar davomida Tohariston markaziy hokimiyati rasman qaram ko'plab kichik mulkliklarga (ularning soni 24 ta) bo'lgan. Chag'oniyon, Termizshohlar, Kuftan kabi mulkliklar Shimoliy–G'ربيy Tohariston, ya'ni Surxon vohasida joylashgan. Termizshohlar (xitoycha Tomi) poytaxt nomi bilan atalib, Amudaryoning o'ng qirg'og'idagi yerlarni va hozirgi Angor, Termiz va Jarqo'rg'on tumanlarini o'z ichiga oladi. Bu mulklik Termizshoh tamonidan idora

etilgan. Chag'oniyon mulkligining matkaziy shahri Chag'oniyon Qizilsuvning Surxondaryoga quyilishida joylashgan Budrach hisoblanadi.

IV asrning ohirida, ayniqsa Sosoniylar Eroni qo'shinlarning Shimoliy Tohariston erlariga yurishi oqibatida dastavval markaziy shaharlar (Tarmita–Termiz, Dalvarzintepa) inqirozga yuz tutadi. VI asr boshlariga kelib Shimoliy Toharistonning markaziy shaharlari qayta tiklanib, kengaya boshlaydi va yana bir qancha shaharlarga asos solindi. Markaziy Osiyoning V-VIII asrlardagi tarixiy vujudan o'lgan o'lkalari (Sug', Xorazm) shaharlari kabi Tohariston shaharsozligida juda murakkab mimorchiлик uslublari qullaniladi bular turkumiga gumbazli xonalar toshlarni gavoqsimon uslubda yopib tepasida ikkinchi va uchunchi qavatni qurish, xom g'ishtlar yordamida aksimon eshiklar qurish vvhokozolar keradi. Toharistonlik memolar ustalar mehmonxonalarini, kundalik hayotga muljallangan xonalarni bezashda samon suvoq, devoriy rang tasvir mohabatli haykaltaroshlik va uyma rangdan udamohirona foydalanganlar.

Shimoliy Tohariston shaharlari Kushon davri shaharlari singari markazlar vazifasini o'tagan. Ko'hna Termizda qazib ochilgan g'orsimon binolar, Chordingak o'rnidagi buddaviylik inshoati, Zangtepadan topilgan qayin po'stlog'iga bitilgan matnlar V – VIII asrlar davomida Toharistonda buddaviylik dini katta mavqega ega ekanligidan dalolat beradi.

Ilk o'rta asrlar Shimoliy Toharistonda badiiy san'atning ayniqsa haykaltaroshlik va devoriy rang tasvir san'atning yuksaklikka erishgan davridir. Toharistonning V-VII asrlar davri rang tasvir san'ati Zartepa, Nondaha qoyalaridan birida barpo etilgan. Vohaning Kattatepa, (Hosiyattepa), Zangtepa, Bolaliktepa, Hayitobod, Kuchuktepa kabi obidalar Bittepa singari dafnlarni o'rganish jarayonida topilgan turli – tuman shisha idishlar, metallardan yasalgan o'smadon va mehnat qurollari, qo'sh baldoqli krujka va metal buyumlariga tahdid etib yasalgan sapol idishlar ilk o'rta asrlar davri Shimoliy G'arbiy Toharistonda hunarmandchilikning rivoj topganligidan dalolat beradi.

Muzeyning 7–zali Shimoliy Toharistonning rivojlangan o'rta asrlar davri (IV –XIII asrlar birinchi choragi) ga oid eksponatlar va ashyoviy dalillar bilan

jihozlangan. IV asr ohiridan to XIII asrning 20–yillariga qadar Termiz va Chag’oniyon Samoniylar, Qoraxoniylar, G’aznaviylar, Saljuqiylar, Qarluqlar va Xorazmshohlar davlatlari hukumronligi ostida bo’linib ketdi.

VIII asrning ikkinchi yarmidan boshlab Movaraunnahr xususan, Termiz va Chog’aniyon yurtlarida musulmon madaniyatining shakillanish jarayoni yuz berdi. Bu jarayon ushbu yurtlarga islom dini, arab tili va yozuvining keng tarqalishi, musulmon dunyosi mamlakatlariga xos me’moriy inshootlarning, jumladan madrasa, masjid, karvonsaroy, minora, maqbara va boshqa turdagi madaniyat namunalarning yuzaga kelishi bilan ajralib turadi.

Termiz shahrining 500 gektarlik shahar tusini olishi X asr ohirlarida sodir bo’lib, XI – XIII asrlar davomida ravnaq topgan. Chag’oniyon (Qizilsuvning Surxondaryoga quyilish joyidagi Budrach yodgorligi) 6 kvadrat kilometrga teng maydonni egallagan. IX asrdan boshlab shaharsozlikda pishirilgan g’ishtlar ommaviy ravishda ishlatilgan, uylar, saroylar, qabul zallari va masjidlarning bazasida murakkab shimoliy va g’irih naqshlar keng qo’llanilgan. Ushbu zal peshtoqidan joy olgan Termizshohlar saroyini bezab turgan naqshin lavhalar o’zining betakrorligi bilan ajralib turadi.

IX – XIII asrlar davomida Termiz va Chag’oniyonda hunarmandchilik ham ravnaq topadi. Chag’oniyon atrofidagi qishloqlarda kulolchilar ustaxonalari bo’lgan. Termizda qulollar mahallasi bilan bir qatorda temirchi va shishasozlar mahallasi ham bo’lgan. Misgar ustalar buyumlarga bezak berishda chizma naqsh usullaridan keng foydalanganlar, Termiz va Chag’oniyonda sirlangan idishlar yasash o’zlashtirilgan. X asr sapol idishlari, xususan, lagan, kosa, taqsimcha, ko’zalar yashil jigarrang va sarg’ish sirlarga bo’yalgan. Bir tur idishlar esa oq rangga bo’yalib, sir ustidan kufiy uslubida bitilgan qora va jigarrang yozuvlar bilan bezalgan. Termizlik kulolchilar o’rta asrlarda simob ko’zachalar yasashda ham mashhur bo’lganlar.

Arxeologiya muzeyining 8-zali Termiz va Chag’oniyonning Amir Temur va Temuriylar davlati davri madaniyatini yoritishga qaratilgan (1370 yil – XVI asr boshlarida). 1370 yilda Amir Temurning taxtga kelishi bayonida Termiz sayyidlari

aka – uka xudovaizodalar Abu mu'ali va Ali Akbarlar tilga olingan. Ayni shu yildan boshlab Sohirqiron va Termiz sayyidlari o'rtasida yaqin munosabatlar yuzaga kelgan. Amir Temur 1399 yilda Hindiston yurishidan va 1404 yilda G'arb tomonga amalga oshirgan muhobasidan qayta turib Termizda qo'nib o'tgan. 1409 yilga qadar Termiz termiziy Halil Sulton va undan so'ng Shohruh mirzo hukumronligi davrida Mirzo Ulug'bek davlati tasarrufida bo'lgan.

1220 yildagi Chingizxon bosqini Termiz va Chag'anyonga juda katta zarar etkazgan. Bu yurtlarning iqtisodiyoti qayta tiklanib, madaniy ravnaq sari yuz tutishi bevosita Movaraunnahrda Amir Temur davlatining tashkil topishi davrida boshlangan. Bu davrda Termiz katta maydonni egallagan, lekin u mudofaa istehkomlari bilan o'rab olinmagan. Atrofi bog'- rog', shaharni ko'plab anhorlar kesib o'tgan.

Amir Temur davrida Chag'onyon o'lkasining markaziy shahri Chag'onyon ham o'z mavqeini saqlab qolgan. Arxeologik dalillarga ko'ra, XV asr ohiri – XVI asr boshlariga kelib Chag'oniyonda hayot shahristonidan rabotgas ko'chgan.

Chag'oniyonning yana bir markazi Navand hisoblangan. Bu shaharlar, ya'ni Termiz, Chag'onyon va Navandlar o'z zarbxonasiga ega bo'lib, ushbu zarbxonalarda Amir Temur va Temuriylar davlati hududida muomalada bo'lgan dir ham (mis tangachalar) qaytadanzarb etilgan (bu tangalardan namunalar zalning markaziy qismida namoyish rtilgan). Surxon voxasidagi saksonga yaqin Sho'rob, Qo'rg'on, Qutlug', Shoxtepa (Sherobod tumani), Navand (Uzun tumani) kabi yodgorliklarda XIV – XV asrlarga mansub madaniy qatlamlar va ashyoviy manbalar mavjudligi qayd etilgan. Bu yodgorliklar qishloq, kechuv bo'yidagi qal'a, saroy, karvonsaroy va savdo yo'lidagi bojxona vazifasini o'tagan. Ushbu zal ko'rgazmalarida namoyish etilayotgan ashyoviy manbalar, xususan jangchi himoya kiyimlari, sifat darajasi bilan xitoy chinnisiga tenglashaoladigan kosalar, ko'za va chiroqlar, shaxmat donalari, me'moriy koshinlar Termiz va Chag'oniyonni amaliy san'atining Amir Temur davlati markaziy shaharlar madaniyati bilan hamohang taraqqiy etganligidan dalolat beradi.

Muzeyning 9-zali Surxon vohasining XX asr boshlaridagi taraqqiyotiga bag'ishlangan. XVI asrning boshlaridan XVIII asrning birinchi yarmiga qadar Surxon vohasi Shayboniylar va Joniylar (Ashtarxoniylar) davlatlari qo'l ostida bo'lgan. XVIII asrning birinchi yarmida XX asr boshlarigacha voha Buxoro amirligining tarkibiy qismi hisoblangan. Vohaning xonliklar davridagi muhim markazlaridan biri Termiz shahri hisoblangan. Shaharning muhim qismi hukmdor qarorgohi, bozor, madrasa va hashamatli juma masjidi hisoblangan. XVIII asr boshida Sherobodga asos solingan. XIX asrga kelib Sherobod Sharqiy Buxoroning yirik iqtisodiy va madaniy markaziga aylangan. XVI asr ohirida Chag'oniylar (Budrach) ning batamom tushkunlikka yuz tutishi oqibatida yangi shahar Qizilsuvning yuqori havzasidan Dehinau (Denov) o'rnida shakllangan. XVIII asr yozma manbalarida Denov mustahkam qal'adan iborat, goyjam bozorli, katta xonaqoh shahar tusini olgan. Tashqi savdoda va Jyxun (Amudaryo) bo'ylab yuk tashishda Pattakesar, Termiz, Yorgoh, Cho'chqaguzar va Qorakamar kechuvlari juda muhim bo'lgan. XVI asrdan to XX asr boshlariga qadar, ya'ni Amudaryoda Chor Rossiyasi flotiliyasi tashkil bo'lgunga qadar bu guzarlardan muntazam foydalanilgan.

Xonliklar davrida vohada uchta saosiy hunarmandchilik markazlari (Boysun, Denov, Sherobod) mavjud bo'lgan. Ko'rgazmalarda namoyish etilayotgan jilakor koshin bo'laklari temir va toshdan yasalgan mehnat qurollari va harbiy qurollar, zargarlik buyumlari ayni shu markazlar, hunarmandchilik maktabiga xos asoriy – atiqadir. Vohaning XVI–XX asr boshlari hunarmandchilik turlaridan yana biri kulolchilik ham ayni anashu kulol ustalari tomonidan yaratilgan. Asr ohirida rangdor idishlar to'q zangori bo'yoqqa bezalib, naqshlar asosan garih va islomiy shakllardan tarkib topgan.

Xalq o'yinlari va milliy sport turlari. Odamzod jismoniy kamolatida bolalikdagi o'yinlar muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbeklar yurti xilma–xil xalq o'yinlariga boy o'lka hisoblanadi (arg'imchoq, bekinmashoq, “oq terakmi, ko'k terak”, tortishmashoq, chillik, podochi, “bo'ri keldi”, “xo'roz va tovuq”, “oq bo'ri va qo'ylar”, olomon poyga, buron, qirq tosh, cho'nqa, shuvoq, otib qochar, soqqa,

bir tayoq, elkada kurash, mindi va h.k). Bu o'yinlar odamlar salomatligini mustahkamlashga xizmat qilishi bilan birga sport turlari paydo bo'lishiga zamin yaratgan. Lekin XX asrning ikkinchi yarmida zamonaviy sport turlarini rivojlantirish baxonasida o'zbek xalq o'yinlariga nopisandalik bilan qaraldi, katta to'ylarda o'takazilib kelingan kurash, uloq – ko'pkari musobaqalari taqiqlandi.

Istislol davrida milliy qadriyatlarni qaytadan tiklash boshlandi. 1991–1993 yillarda Jizzax viloyatining Forish tumanida xalq o'yinlari shu maskandasayili o'tkazildi. 1994 va 1996 yillarda shu maskanda xalq o'yinlari va milliy sport turlari bo'yicha respublika musobaqasi tashkil qilindi. Ularda unitilayotgan ommaviy o'yinlar va milliy sport turlari namoyish etildi, ayrimlari bo'yicha qiziqarli musobaqalar uyushtirildi. Aynan shu musobaqalardan o'rin olgan turlar bo'yicha mamlakatda “Alpomish o'yinlari” (1998–Termiz, 2000–Farg'ona) va ayollar o'rtasida “To'maris” o'yinlari (1999 – Jizzax, 2001 - Shahrisabz) festivallari bo'lib o'tdi. O'quvchilar o'rtasida xalq o'yinlari va milliy sport turlari festivali o'tkazila boshlandi (2005 - Jizzax).

Qadimiy kurashning xalqoro andozolariga moslashtirilgan qoidasi ishlab chiqildi va shu qoida asosida musobaqa tashkil etildi (1991 - Miroqi). 1992 yildan Shahrisabz, Buxoro, Termiz, Xiva, Andijon shaharlarida xalqoro musobaqalar uyushtirildi va bu davrda nufuzli sport anjumanlarida kurash keng targ'ib qilindi. 1998 yil 6 sentyabrda Toshkentda 28 davlat vakillari Kurash xalqaro assotsiatsiyasi (KXA) ga asos solindi. Hozirgi vaqtda (KXA) tarkibida Kurash xalqaro akademiyasi jahon kurashni rivojlantirish jamg'armasi, Kurash xalqaro instituti, Amerika, Afrika, Evropa, Okeaniya va Osiyo kurash konferentsiyasiyalari, 88 milliy federatsiyasi faoliyat ko'rsatayapti (2005y). O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xalqaro kurash assotsiatsiyasini qo'llab – quvvatlash to'g'risida” gi (1999 yil 1 fevral) farmoni kurashni dunyoda rivojlantirishda muhim rol o'ynadi. Kurash bo'yicha 5 bor jahon chempionatlari, Buyuk Britaniya, Gretsiya, Hindiston, Eron, Janubiy Afrika Respublikasi, Kanadfa, Boliviya kabi davlatlarda xalqaro musobaqalar, yoshlar o'rtasida jahon birinchiliklari mutazam o'tkazilib kelinmoqda. Xorijlik va mahalliy turistlarni Surxondaryo viloyati aholisining

milliy o'yinlari ham katta qiziqish o'yg'otadi. Viloyat aholisining ayniqsa Boysun tumani aholisining o'ziga xos o'yinlari bor. Ana shu o'ziga xos o'yinlarni o'zida mujassamlashtirgan Boysunda mashhur “**Shalola**” va “**Shirin-shakar**” fasillar etnografik ansabli faoliyat ko'rsatadi.

Bundan tashqari viloyatda milliy kurash juda keng rivojlangan. Ana shu milliy kurashni xalq ommasi o'rtasida yanada keng targ'ib qilish maqsadida respublikamizda “Alpomish o'yinlari” festivali har ikki yilda bir marta o'tkaziladi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Alpomish” dostoni yaratilganligining 1000 yilligini nishonlash to'g'risidagi qarori (1998 yil 13 yanvar) asosida tashkil qilingan. Maqsad xalq o'yinlarini keng ommalashtirish. O'zbekistonda Alpomish nisbatli yoshlarni ko'paytirish, ularni vatanparvarlik, fidoyilik ruhida tarbiyalash. Festival nizomiga ko'ra 4, 3 bosqichda o'tkaziladi. Birinchi bosqich–tumanlar miqyosida tashkil qilinadi. Tuman musobaqa g'oliblari ikkinchi bosqichda viloyat musobaqalarida qatnashadi. Uchunchi bosqich respublika final bahslarida qatnashish huquqini qo'lga kiritadilar. Alpomish o'yinlari festivali milliy sport turi – milliy kurash (buxorocho, farg'ona usullari), “Turon” komondan o'q otish, tosh ko'tarish, armrestlin (bilak kuchi kurashi) hamda xalq o'yinlari “tortishmoq”, “mindi”, “bo'ron”, “elkada kurash” bo'yicha o'tkaziladi. Musobaqada 15 yoshdan 50 yoshgacha bo'lgan kishilar ishtirok etish mumkin. Alpomish o'yinlari festivali g'oliblar polvonlari, mardlik va oriyat timsoli sifatida hurmatga sazovar bo'ladilar. Birinchi Alpomish o'yinlari festivali “Alpomish” stadionida bo'lib o'tdi. Unda umumjamoa hisobida Surxondaryo viloyati vakillari g'oliblikni qo'lga kiritdilar. Ikkinchi o'rinda Andijon viloyati, uchinchi o'rinni Toshkent viloyati jamoasi egalladi.

Surxondaryo viloyatiga tashrif buyurgan turistlarda buyerdagi musiqa uslublari ham katta qiziqish uyg'otadi. Bu yerda Surxondaryo–Qashqadaryo musiqa uslubi shakllangan. Bu yerdagi musiqa uslubi o'zbek an'anaviy musiqasining mahalliy uslublariidan biridir. Mazkur hududda yashayotgan xalqning etnik tarkibi, kelib chiqishi, tarixidan qaror topgan ijtimoiy – iqtisodiy sharoitlari ushbu uslubning o'ziga xosligini belgilaydi. Jumladan, Surxondaryo va

Qashqadaryo viloyatlari o'zbek aholisining ko'pchilik qismi azaldan yarim ko'chmanchi hayot kechirib, asosan chorvachilik va dehqonchilik bilan shug'ullanganligi sababli aynan shu jarayonlarga bog'liq xalq qo'shiqlari salmoqli o'rin tutadi.

Xulosa

Surxondaryo viloyatidagi mavjud madaniy tarixiy obidalarni o'rganish shuni ko'rsatadiki, o'sha tarix O'zbekiston tarixining ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi. Vatanimiz hududida sun'iy sug'orishga asoslangan dehqonchilikning va keyinchalik uning manbaida davrimizdan qariyb 4 ming yil muqaddam shahar turkumidagi madaniyatning shakllanishi ham ilk bor ayni shu viloyatda kechgan. Ilk shaharlar, yuksak darajada rivojlangan dehqonchilik, hunarmandchilik va harbiy san'atning mavjudligi miloddan avvalgi 1 ming yillik o'rtalarida viloyat hududida Janubiy Tojikiston va Shimoliy Afg'oniston yerlari bilan birgalikda Markaziy Osiyoning qadimiy davlatlaridan biri qadimgi Baxtriya podsholigining shakllanishiga olib keldi.

Viloyat tarixidagi Yunon–Baqtriya va ayniqsa Kushon podsholigi davri ham juda muhimdir. Ko'hna dunyoning to'rt yirik davlatlaridan biri bo'lgan Kushon podsholigi davri Markaziy Osiyo xalqlarining Hindiston bilan qadimgi davr iqtisodiy va madaniy aloqalarining eng yuksaklikka erishgan davridir.

Ilk (V–VIII asrlar), rivojlangan o'rta asrlarda (XI - XII), Temur va Temuriylar va so'nggi o'rta asrlar davrlarida Turon–Movaraunnahr markazlari bilan bevosita bog'liq bo'lgan Termiz va Chag'oniyon o'lkalari fan va madaniyatning barcha sohalarini o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Bu xususiyat ushbu mintaqada o'rta asrlarda yashab faoliyat ko'rsatgan olimu fuzalolar, shoir va din peshvolari yaratib qoldirgan asarlar davri me'morchiligi va moddiy madaniyatning boshqa ko'pgina turlarida yaqqol ko'zga tashlanadi.

Surxon vohasida madaniy turistik ob'ektlar bo'lib, mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan keying yillarda hurmatli Prezidentimiz tashabbusi bilan viloyatda olib borilgan va olib borilayotgan bunyodkorlik ishlarida yaqqol namoyon etilgan. Mustaqillik yillarida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1998 yil 12 yanvardagi “muzeylar faoliyatini tubdan yangilash va takomillashtirish to'g'risida” gi farmoni hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 27 dekabrda 545 – sonli “Termiz shahrining 2500 yilligini nishonlashga

tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish to'g'risida" gi qarori asosida Termiz shahrida bunyod etilgan O'rta Osiyodagi eng yirik ma'naviy maskan ya'ni, Surxondaryo viloyati arxeologiya muzeyi, Termiz shahridagi o'lkashunoslik muzeylari viloyatda madaniy turizm ob'ektlari bo'lib hisoblanadi.

Bundan tashqari, viloyatda mustaqillik yillarida bunyod etilgan Termiz Davlat Universitetining binosi, stadion va boshqa qator madaniy hordiq chiqaradigan joylar ham viloyatda madaniy turizmni rivojlantirish ob'ektlari bo'lib xizmat qiladi. Demak, xulosa qilib shu narsani ta'kidlashimiz mumkinki, Surxondaryo viloyati hududi madaniy–tarixiy obidalarga juda boy, ulardan turizmni rivojlantirishda maqsadli foydalanish hozirgi kunning dolzarb masalalaridan hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1.O‘zbekiston Respublikasining ”Turizm to‘g‘risida’gi qonuni, O‘zbekistonning yangi qonunlari.-Toshkent. Adolat. 2000.
- 2.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ”O‘zbek turizm Milliy Kompaniyasini tashkil qilish to‘g‘risida” gi farmoni N. PF – 447, Xalq so‘zi, 1992
- 3.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1995 yil 2 iyundagi 1162 raqamli “Buyuk Ipak Yo‘li” ni qayta tiklashda O‘zbekiston Respublikasining ishtirokini avj oldirish va respublikada xalqaro turizmni rivojlantirish borasidagi chora – tadbirlar to‘g‘risida” gi farmoni, Xalq so‘zi, 1995.
- 4.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ”O‘zbekiston Respublikasida 2006-2010 yillarda xizmat ko‘rsatish va servis sohasini rivojlantirishni jadallashtirish chora – tadbirlari to‘g‘risida” gi 325 – sonli qarori. 17 aprel 2006.
- 5.Karimov I.A. O‘zbekiston XXI asr bo’sag’asida: havfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari.-T., 1997.
- 6.Karimov I.A O‘zbekiston iqtisodiy islohatlarni chuqurlashtirish yo’lida, T. “O‘zbekiston”, 1995.
- 7.Abdullaev O. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaga kirish. O’quv dasturi.- Namangan, 1993.
8. Asanov G.R, Nabixonov M.N. O‘zbekistonning iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi. -T. 1994
9. Abirqulov Q. Iqtisodiy geografiya.-T., 2004.
- 10.Annayev T. Turdiboyev B. Termiz va Chag‘oniyonning so‘ngi o‘rta asrlar davri madaniyatini o‘rganishga doir. O‘zbekiston qadimda va o‘rta asrlarda. Respublika yosh tarixchi olimlarining anjumanining ma’ruzalari bayoni. O‘zR. FA Arxeologiya instituti nashriyoti.- Samarqand, 1992.
- 11.Annayev T. Tilavov B. Egamberdiyev B. Termiz va Chag‘oniyon XII – XIX asrlarda siyosiy va madaniy hayot. Baxtriya va Tohariston qadimgi va o‘rta asrlarda. Surxondaryo viloyati o‘lkashunoslik muzeyining 60 yilligiga

bag'ishlangan ilmiy anjuman ma'ruzalari bayoni, O'zR FA Arxeologiya instituti nashriyoti.- Samarqand, 1993.

12. Аннаев Т. Шайдулаев Ш. Сурхондарё тарихидан (Қадимги даврлардан XIX асрга қадар). А. Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти.-Тошкент, 1997.

13. Античные и раннесредневековые древности южного Узбекистана.-Ташкент “Фан” 1979.

14. Аскарлов А. Сополлитепа.- Ташкент. "Фан" 1973.

15. Аскарлов А. Албаум Л. И. Поселение Кучуктепа.-Ташкент. "Фан" 1983.

16. Ботиров И., Аннаев Т. Сурхондарё вилояти Археология музейи (қисқача йўлланма). "Шарқ" нашриёти матбаа акциядорлик компанияси бош таҳририяти.-Ташкент, 2002.

17. Саушкин Ю.Г.. Экономическая география: история, методы, теория, практика.-М., 1973.

18. Семевский Б.Н. Введение в экономическую географию.-Л., 1976.

19. Soliev A., Mahamadliev R. Iqtisodiy geografiya asoslari.-T., 1996.

20. Soleev A.S. va boshqalar. Mintaqaviy iqtisodiyot o'quv qo'llanmasi T. "Universitet" 2003.

21. Soliev A. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning dolzarb masalalari.-T., 1995.

22. Soliev A., Tojiev Z. Iqtisodiy va sotsial geografiya asoslari.-T., 2001.

23. Soliev A., Qarshiboeva L. Iqtisodiy geografiyaning nazariy va amaliy masalalari-T., 1999.

www.uzbektourizm.uz

www.worldturizm.org

www.sartour.ru